

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK
INSTITUTI**

Oliy ta'limning 5340100-«Iqtisodiyot» (qishloq
xo'jaligi) va 5610100-«Ferma xo'jaligini boshqarish»
bakalavriat yo'nalishlari uchun

KORXONA IQTISODIYOTI
fanidan

USLUBIY QO'LLANMA

SAMARQAND – 2009

**Tuzuvchilar: SamQXI «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi»
kafedrasi dotsenti, i.f.n. I.M.G'aniyev, assistentlar:
G'.A.Ibragimov, Sh.A.Muratov, O.M.Tursunov**

Ushbu uslubiy qo'llanma 5340100-«Iqtisodiyot» va 5610100-«Ferma xo'jaligini boshqarish» yo'nalishlari bo'yicha ta'lim oluvchi talabalarga mo'ljallangan.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2002 yil 7 martdagi 71/44/22-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi» talablari asosida tayyorlandi.

Oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2005 yil 2 iyuldagi majlisi qaroriga asosan Institut ilmiy kengashida 2009 yil 30 yanvarda muhokama qilinib, 6-sonli bayonnoma bilan ma'qullangan va chop etishga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

Abdukarimov B.A.– SamISI «Iqtisodiyot» kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent.

Raxmonov Sh.A. – SamQXI «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrasi dotsenti, i.f.n.

AXBOROT – RESURS TA’MINOTI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1992 .
2. O'zbekistonning yangi qonunlari. 1-18 kitoblar. Toshkent «Adolat» nashriyoti 1991-1996 yillar.
3. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T.: «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T.: «O'zbekiston», 1996.
5. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T.: «O'zbekiston», 1996.
6. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. T.: «O'zbekiston», 1996.
7. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. T.: «O'zbekiston», 1997.
8. Karimov I. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. T.: «O'zbekiston», 1998.
9. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T.: «O'zbekiston», 1999.
10. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-tom. T.: «O'zbekiston», 2000.
11. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. 9-tom. T.: «O'zbekiston», 2001.
12. Karimov I. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmok kerak. 10-kitob. T.: «O'zbekiston», 2002.
13. Karimov I. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-tom. T.: «O'zbekiston», 2003.
14. Karimov I. Tinchlik va havfsizlik o'z kuch-kudratimizga, hamkor hayotimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-tom. T.: «O'zbekiston», 2004.
15. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005.
16. «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishini rag'batlantirish va ishlab chiqaruvchilar bilan savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2002 y. 13 noyabr.
17. Sharifxo'jayev M. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. T.; Mehnat, 2001 y.
18. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. «Menejment». Darslik. Toshkent 2001.
19. Abdukarimov B.A. va boshqalar «Korxonalar iqtisodiyoti». Toshkent. «FAN». 2005 yil.
20. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Akademiklar S.G'ulomov va M. Sharifxo'jayevlarning umumiy tahriri ostida. T., O'qituvchi. 2000 y.
21. Hakimova M. Mikroiktisodiyot. Toshkent 1997.
22. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. (O'quv qo'llanma). –T.: TDIU, 2006 – 160 bet.
23. Qosimov H.Q., Aslanova D.X., Ergashev R. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Samarqand, “SamDU”. 2003 yil. 176 bet

24. Беа Ф.К., Дихтла Э., Швайтцери М. Экономика предприятия. Перевод с немецкого. М.; Инфра, 1999.
25. Волков О.И. «Экономика предприятия». Москва «Иккерра-М» 2001.
26. Жариков В.Д., Безуглая В.М. Экономика предприятия: Метод. указ. / Сост.: Тамбов: Изд-во Тамб. гос.техн. ун-та, 2005. 24 с.
27. Кейлер В.А. Экономика предприятия. Курс лекций. 2000.
28. Сафронова И.А. Экономика предприятия. М.; Юрист, 1998.
29. Сума Г.З. Экономика предприятия. М., 2000.
30. Растова Ю.И., Лобова С.В. Задания и методическая указания к контрольным работам по курсу «Экономика предприятия». Барнаул, 2006.
31. Хринач В.Я. и др. Экономика предприятия. Практ. пособ.-Минск: Эконом Пресс. 2000.
32. Цеддиес Ю., Райш Э., Угаров А.А. «Экономика сельскохозяйственных предприятий». Москва 2000.
33. Хунгуреева И.П., Шабыкова Н.Э., Унгаева И.Ю. Экономика предприятия: Учебное пособие. – Улан-Удэ, Изд-во ВСГТУ, 2004. –240 с. ISBN 5-89230-173-7
34. Юлдашев Ш.А., Игамбердиев И. Экономика предприятия. Учебное пособие. Ташкент, 2004. 155 стр.
35. Чуев И.Н., Чечевицына Л.Н. Экономика предприятия. Москва. 2003 г.

ESLATMA:

Yuqorida keltirilgan adabiyotlardan tashqari har bir ma'ruza va amaliyot darsida kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ishlanmalar, uslubiy qo'llanmalar, hisobot, statistika ma'lumoti va davriy matbuotda e'lon qilingan ilmiy maqolalar, yangidan chop etilgan maxsus ilmiy uslubiy adabiyotlar, rasmiy hujjatlar va internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar bilan to'lg'azib borilishi ko'zda tutiladi.

1-MASHG'ULOT. «KORXONA IQTISODIYOTI» KURSINING MAZMUNI VA VAZIFASI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga «Korxona iqtisodiyoti» fanining ahamiyati, zarurligi, fanning predmeti va o'rganish usullarini o'rgatish.

II. Darsning rejası:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor modeli va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining korxona tomon siljishi.
2. Kursning ahamiyati, ob'ekti, predmeti va vazifalari.
3. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining ustivor yo'nalishlari.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 19, 21, 23, 27, 29, 31, 34

IV. Darsning borishi:

1. Talabalar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
2. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
3. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. "Iqtisodiyot" atamasi fanga kim tomonidan kiritilgan?

- | | |
|--------------|--------------|
| A. A.Smit | B. D.Rikardo |
| D. Aristotel | E. Beruniy |

2. Insonni "homo economicus" - "iqtisodiy odam" deb atagan olim kim edi?

- | | |
|--------------|--------------|
| A. A.Smit | B. D.Rikardo |
| D. Aristotel | E. Beruniy |

3. Tarmoqlar deyilganda nimani tushunasiz?

- A. Vazirliklar, qo'mitalar, korxonalar, firmalar
B. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va hokazo
D. Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud
E. Hokimiyatlar, Xalq deputatlari kengashlari

4. Korxona - nima?

- | | |
|-----------------------|--|
| A. Mehnat qilish joyi | B. Firmaning sinonimi |
| D. Tarmoq bo'g'ini | E. Moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchi maxsus xo'jalik yuritish bo'g'in |

5. «Korxona iqtisodiyoti» qanday fan?

A. Aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fan

B. Tabiatda hamda inson, jamoa va jamiyat hayotida vujudga keluvchi turli xil iqtisodiy jarayon va hodisalarni prognozlashtirish, tahlil qilish va baholash bo'yicha bilimlar majmuasini ifoda etuvchi fan

D. Inson hayotining moddiy, ma'naviy, fiziologik va boshqa ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan har bir jabhasini qamrab oluvchi fan

E. Korxonadagi sarf-xarajatlar, pul oqimi, tushum, daromad va foydani o'rganuvchi fan

6. Korxonada qanday muammolar hal etilishi lozim?

A. Korxona qay tarzda faoliyat yuritishi kerak va daromad nimaga bog'liq bo'ladi?

B. «Xom ashyo etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan qanday ishlash kerak?» «Mahsulotni sotishda vositachilardan foydalanish zaruriyati; Ishlab chiqarish sur'atini qanday oshirish mumkin?»

D. Qachon, qaerda, kimga sotish, nimani, qancha, qanday qilib

E. «Raqobatchilik kurashida nima va qanday omillar muvaffaqiyat keltiradi?» «Ishlab chiqarish va sotishni boshqarish tizimi qanday bo'lishi lozim?»

7. “Korxonalar iqtisodiyoti” fanining ahamiyati nimada?

A. Inson hayotining moddiy, ma'naviy, fiziologik va boshqa ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan har bir jabhasini qamrab olish

B. Talabalarda mustaqil ravishda korxonani tashkil qila olish va uni samarali faoliyat olib borishini ta'minlay olish malakasini yaratishi lozim

D. Tabiatda hamda inson, jamoa va jamiyat hayotida vujudga keluvchi turli xil iqtisodiy jarayon va hodisalarni prognozlashtirish, tahlil qilish va baholash bo'yicha bilimlar majmuasini ifoda etish

E. Korxonadagi sarf-xarajatlar, pul oqimi, tushum, daromad va foydani o'rganish

8. “Korxonalar iqtisodiyoti ” fanining ob'ekti nima?

A. Inson hayotining moddiy, ma'naviy, fiziologik va boshqa ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan har bir jabhasini qamrab olish

B. Korxonalarning tasniflanishi, turlari, tashkil qilish tartibi, tugatish tartibi, takomillashtirish yo'nalishlari, korxonaning xalqaro iqtisodiy aloqalari va boshqa turdagi korxona faoliyati bilan bog'liq masalalar

D. Korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha vositalar, jarayonlar va usullar

E. Korxona faoliyati va u bilan bog'liq munosabatlar yig'indisi

9. “Korxonalar iqtisodiyoti” fanining predmeti nima?

A. Inson hayotining moddiy, ma'naviy, fiziologik va boshqa ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan har bir jabhasini qamrab olish

B. Korxonalarning tasniflanishi, turlari, tashkil qilish tartibi, tugatish tartibi, takomillashtirish yo'nalishlari, korxonaning xalqaro iqtisodiy aloqalari va boshqa turdagi korxona faoliyati bilan bog'liq masalalar

D. Korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha vositalar, jarayonlar va usullar

E. Korxona faoliyati va u bilan bog'liq munosabatlar yig'indisi

10. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining ustivor yo'nalishlarida bosh yo'nalishni bilasizmi?

A. Makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash

B. Islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot, soliq-budjet siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish


D. Aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish

E. Yoshlarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab shakllantirish

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Quyidagi chizmani chizing, korxona faoliyat jarayonini tahlil eting va tegishli xulosalar yozing.

Ichki muhit



1-rasm. Korxonada faoliyat jarayoni

2-Topshiriq. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish quvvati va mahsulot sotish baholari berilgan. Korxona mahsulot turlari bo'yicha 2 yilda olingan kredit qiymatini qaytarishi lozim. Buning uchun korxona ikki yilda 35 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarishi ko'zda tutilgan. Quyidagi berilgan jadvallar asosida tegishli hisob ishlarini bajaring va korxona mahsulot turlari bo'yicha qancha qiymatlik mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega ekanligini hisoblab toping.

1-jadval


Korxonada mahsulot ishlab chiqarish dasturi

Mahsulot turi	1 birlik mahsulot qiymati, so'm	Maksimal mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona	Ikki yil davomida ishlab chiqariladigan mahsulot taqsimoti			
			Birinchi yil		Ikkinchi yil	
			1-yarim yillik	2-yarim yillik	1-yarim yillik	2-yarim yillik
A	3700	1500	320	360	400	420
B	4200	1000	250	250	250	250
D	4360	1200	240	280	320	360
E	3920	800	150	250	150	250
F	4540	2000	500	500	500	500
G	4700	2400	500	600	600	700

Korxona ikki yil davomida ishlab chiqara oladigan mahsulot qiymati

Mahsulot turi	Ikki yil davomida ishlab chiqariladigan mahsulot qiymati, ming so'm				
	Birinci yil		Ikkinchi yil		Jami
	1-yarim yillik	2-yarim yillik	1-yarim yillik	2-yarim yillik	
A					
B					
D					
E					
F					
G					
Qiymati-jami					

3-Topshiriq. Quyidagi chizmani chizing, korxona tashqi muhitini tahlil eting va tegishli xulosalar yozing.



2-rasm. Korxona tashqi muhiti

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

2-MASHG'ULOT. KORXONA – MUSTAQIL XO'JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUB'EKTI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga korxonaning mohiyati, uning xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularning shakllari, turlari, tasniflanishi va korxonalar faoliyatini litsenziyalash va iste'molchilar talabiga yo'naltirishga doir ko'nikmalar paydo qilish.

II. Darsning rejası:

1. Korxona - xalq xo'jaligining asosiy bo'g'ini.
2. Korxona shakllari va turlari.
3. Korxonalar faoliyatini litsenziyalash va iste'molchilar talabiga yo'naltirish.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 20, 22, 24, 28, 32, 34, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Qaysi javobda korxonaning aniq maqsadlari ko'rsatilgan?

- A. Foyda, atrof-muhit muhofazasi, ishlovchilarning ish xaqini ko'paytirish
- B. Foyda, talabni qondirish, xarajatlarni kamaytirish
- D. Foyda, talabni qondirish, atrof-muhit muhofazasi
- E. Foyda, mulkni oshirish, xarajatlarni kamaytirish

2. Qaysi tarmoqqa qarashligiga ko'ra korxonalar qanday turlarga ajratiladi?

A. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi

- B. Yirik, o'rta, kichik
- D. Ixtisoslashgan, universal, aralash
- E. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

3. Hajmiga ko'ra korxonalar qaysi turlarga bo'linadi?

A. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

B. Yirik, o'rta, kichik

D. Ixtisoslashgan, universal, aralash

E. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi

4. Ixtisoslashtirish darajasiga ko'ra korxonalar qaysi turlarga bo'linadi?

- A. Yirik, o'rta, kichik
- B. Ixtisoslashgan, universal, aralash
- D. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

E. Ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi

5. Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra korxonalar qaysi turlarga bo'linadi?

A. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi

B. Ixtisoslashgan, universal, aralash

D. Yirik, o'rta, kichik

E. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

6. Litsenziya nima?

A. Qoidalarga amal qilish lozimligini bildiruvchi hujjat

B. Faoliyatni to'xtatishni majburlovchi hujjat

D. Faoliyat turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma

E. Qancha mahsulot ishlab chiqarishni bildiruvchi ruxsatnoma

7. Korxonaning faoliyat yuritishidagi ichki omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar, pul mablag'lari, raqobat

B. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar, axoli raqobat

D. Personal, davlat, pul mablag'lari, axborot

E. Personal, ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborot

8. Korxonaning faoliyat yuritishidagi tashqi omillar qaysi omilda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Personal, davlat, pul mablag'lari, axborot

B. Personal, ishlab chiqarish vositalari, pul mablaglari, axborot

D. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar, aholi, raqobat

E. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar pul mablag'lari, raqobat

9. Korxonani bankrotlikdan saqlashga doir tadbirlar umumiy holda quyidagi guruhlariga bo'linadi?

A. Kuzatish, o'zaro kelishuvlar qarzlardan kechish, subsidiya berish, samarali biznes-reja tuzish

B. Kuzatish, tashqi boshqaruv, konkursli ishlab chiqarish, o'zaro kelishuvlar

D. Tashqi boshqaruv, konkursli ishlab chiqish, samarali biznes-reja tuzish, qarzlardan kechish

E. Tashqi boshqaruv o'zaro kelishuvlar, xarajatlarni kamaytirish, kuzatish.

10. Korxonani tasniflashga asos bo'ladigan belgilar quyidagilar:

A. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, mehnat vositalari

B. Ixtisoslashuv, korxonaning joylashuvi, ishlovchilar soni

D. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, ishlovchilar tarkibi

E. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, ishlab chiqarish salohiyatining quvvati

11. Korxonaning ishlab chiqarish komponentlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Personal, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, energiya, axborotlar, ishlab chiqarish o'rni;


B. Personal, mehnat vositalari, mehnat unumdorligi, energiya, axborot, ishlab chiqarish o'rni;

D. Personal, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, energiya, ishlab chiqarish o'rni.

E. Personal, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, energiya, reklama, ishlab chiqarish o'rni.

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Korxona namunaviy tuzilmasini izohlab bering.



3-rasm. Korxona tuzilmasi

2-Topshiriq. Tahlilchilar hududda mavjud korxonalarni tahlil etishganlarida quyidagi natijaga ega bo'lishdi:

3-jadval

Hududda mavjud korxonalar haqida ma'lumot

№	Korxona turlari	Pul aylanmasi, mln so'm	Xodimlar soni, kishi	Korxona shakli
1.	Ishlab chiqarish korxonasi			
	A	221,6	16	
	B	345,8	45	
	D	542,7	62	
2.	Xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish korxonasi			
	A	238,9	27	
	B	164,9	17	
	D	108,5	8	
3.	Ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonasi			
	A	541,5	26	
	B	487,5	12	
	D	234,7	4	
4.	Engil va oziq-ovqat sanoati korxonasi			
	A	1780,1	58	
	B	2848,9	111	
5.	Qishloq xo'jaligi korxonasi			
	A	1181,6	36	
	B	1846,8	64	

Berilgan jadval ma'lumotlari asosida o'rganilgan korxonalar shaklini aniqlang. Hududda qancha mikrofirma, kichik korxona va yirik korxona mavjud?

Topshiriqni bajarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Farmoniga asoslanadi. Unga asosan ishlab chiqarish tarmog'ining o'rtacha yillik xodimlari soni 20 kishigacha bo'lgan hamda xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasidagi o'rtacha yillik xodimlari soni 10 kishigacha bo'lgan; ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar **mikrofirmalar** qatoriga kiritiladi.

Kichik korxona hisoblanadi:

– engil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishigacha ishlaydigan;

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha ishlaydigan;

– fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish xamda boshqa noishlab chiqarish sohalarda 25 kishigacha ishlaydigan korxonalar.

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.

9.2. Berilgan topshiqlarni bajarish.

9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

3-4-MASHG'ULOTLAR. KORXONANI TASHKIL ETISH VA UNING FAOLIYATINI TUGATISH.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga korxonani tashkil etish tamoyillari, tashkil etishda bo'lgan ta'sis hujjatlari, uning mulki, to'lov qobiliyatini yo'qotgan korxonalarda moliyaviy holatini yaxshilash tadbirlari, murosa kelishuvlari va uni tugatish doir ko'nikmalar paydo qilish.

II. Darsning rejası:

1. Korxonani tashkil etish tamoyillari.
2. Korxonani tashkil etishda bo'lgan ta'sis hujjatlari.
3. Korxona mulki.
4. To'lov qobiliyatini yo'qotgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari.
5. Korxonani tugatish tartibi.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 21, 24, 26, 29, 33, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Korxonani tashkil qilish qanday tashkiliy tamoillarga asoslanadi?

A. G'oya, xodimlarni tanlash, talabning mavjudligi, ro'yxatdan o'tish, ishlab chiqarishni boshlash, eksport

B. G'oya, raqobatchilarni topish, talabning mavjudligi, moliyani shakllantirish, ro'yxatdan o'tish

D. G'oya, iste'molchilarni tanlash, chetdan investisiya jalb qilish, eksport qilish, xodimlarni yollash

E. G'oya, ta'sischilarni tanlash, talabning mavjudligini o'rganish, moliyani shakllantirish, ro'yxatdan o'tish

2. Hududda korxonani tashkil qilish qaysi omillarga asoslanadi?

A. Talabning mavjudligi, fan-texnika yutuqlarining rivojlantirishi, xarajatlarning pastligi

B. Talabning mavjudligi, resurslar salohiyati, tarmoqni rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi

D. Taklifning mavjudligi, resurslarning arzonligi, aholi sonining o'sishi

E. Taklifning mavjudligi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarning pastligi, eksport imkoniyatlarining kuchliligi

3. Korxonani tashkil qilishdagi ta'sis hujjatlarida nimalar ifodalaniladi?

- A. Korxonaning huquq va majburiyatlari ifodalangan
- B. Korxonaning faoliyat samaradorligi mezonlari ifodalangan
- D. Korxonani tashkil qilish tartibi ifodalangan
- E. Korxonaning istiqboldagi faoliyat strategiyasi ifodalangan

4. Korxonaning ta'sis hujjatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Korxona nizomi, mehnat shartnomasi
- B. Korxona nizomi, registrasiya nomeri
- D. Korxona nizomi, ta'sis shartnomasi
- E. Korxona nizomi, biznes – reja

5. Korxonaning hayotiylik davri qaysi bosqichlardan iborat?

- A. Tashkil qilish, boshqarish, biznes-reja, bankrotlik va tugatish
- B. Tashkil qilish, reorganizatsiya, restruktrizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish
- D. Tashkil qilish, reorganizatsiya, boshqarish, restruktrizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish
- E. Reorganizatsiya, boshqarish, restruktrizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish

6. Korxonani bankrotlikka olib kelish mumkin bo'lgan tashqi omillarga qaysi omillar kiradi?

- A. Demokratik holat, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy holat, madaniyat darajasi, ITT
- B. Firma falsafasi, texnik imkoniyatlar, kadrlar salohiyati, moliya, investitsiya, innovatsiya
- D. Demokratik holat, firma falsafasi, siyosiy barqarorlik, ITT, investitsiya
- E. Moliya, investitsiya, ishlovchilar soni, kam ish haqi to'lash mahsulotlarning qimmatlashuvi

7. Korxonani bankrotlikka olib keluvchi ichki omillarga nimalar kiradi?

- A. Demokratik holat, firma falsafasi, siyosiy barqarorlik, ITT, investitsiya
- B. Demografik holat, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy holat, madaniyat darajasi, ITT
- D. Firma falsafasi, texnik imkoniyatlar, kadrlar salohiyati, moliya, investitsiya, innovatsiya
- E. Moliya, investitsiya, ishlovchilar soni, kam ish haqi to'lash mahsulotlarning qimmatlashuvi

8. Korxona faoliyat yuritish davomida qanday javobgarlikni o'z bo'yniga oladi?

- A. Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, samaradorlikni oshirish, atrof-muhitni saqlash, ish haqini oshirish
- B. Foyda miqdorini ko'paytirishga erishish, ishlovchilar sonini ko'paytirish, mahsulot bahosini pasaytirish, mulk miqdorini saqlab olish
- D. Xarajatlarni kamaytirish, qonunlarga rioya qilish, samarali boshqarish, talabga mos harakat qilish
- E. Davlat va aholi manfaatlarini paymol qilmaslik, atrof-muhitni saqlash, mulkni imkon qadar ko'paytirish, samaradorlikni ko'paytirish

9. Mulkni huquqiy kategoriya sifatida ro'yobga chiqarish jihatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Egalish qilish, tasarruf etish, ko'paytirish
- B. Egalik qilish, tasarruf etish, foydalanish
- D. Tasarruf etish, foydalanish, sotish
- E. Tasarruf etish, foydalanish, ko'paytirish

10. Korxona faoliyatini to'xtatishga olib keladigan sabablar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Talabning pasayishi, surunkali zarar, ish haqining pasayishi, sanatsiya.
- B. Talabning pasayishi, surunkali zarar, aholiga va atrof-muhitga xavfning yuqoriligi, korxona personalining ish haqini keskin darajada ko'tarilib ketish
- D. Talabning pasayishi, surunkali zarar, iqlimning o'zgarishi, mamlakat hukumatining almashishi
- E. Talabning pasayishi, surunkali zarar, aholiga va atrof-muhitga xavfning yuqoriligi, vositalarni boshqa tarmoqda ishlash samaradorligining yuqoriligi

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Tadbirkor yil davomida 125 t mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona tashkil etish niyatida. Uning hisob-kitoblari bo'yicha korxona soatiga 45 kg mahsulot ishlab chiqarishi va yil davomida notekis ishlashi kerak. Birinchi yarim yillik (25 hafta)da 1 smenalik ish vaqti (haftasiga 5 kunlik 8 soatdan) 2-yarim yillik (24 hafta)da 2 smenalik ish vaqti (1-smena 8 soat, 2-smena 7 soat). Korxona tadbirkor hohlaganidek mahsulot ishlab chiqara oladimi? Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini hisoblang. Korxonaning 1- va 2-smenadagi, 1-va 2-yarim yillikdagi mahsulot ishlab chiqarish quvvati qancha?

4-jadval

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish quvvati

Smenalar	1-yarim yillik	2-yarim yillik	Yil davomida
1-smena			
2-smena			
Jami:			

2-Topshiriq. Xususiy korxonaning ta'sis hujjati uning ustavidir. Xususiy korxonaning ustavida nimalar ko'rsatilishi kerak? Qisqacha daftaringizga yozing va tushuntirib bering.

3-Topshiriq. Avtobus yig'ish sexida 12 dona avtobus ishlab chiqarish uchun quyidagi sarflar qilinadi: po'lat – 1020 kg, alyuminiy – 600 kg, plastikoyna – 790 kg, rezina – 450 m², shnur – 500 m, oyna – 500 m².

Qilinadigan sarflar bahosi quyidagicha: po'lat – 1110 \$/t, alyuminiy – 1230 \$/t, plastikoyna – 1150 \$/t, rezina – 45 \$/m², shnur – 8 \$/m, oyna – 210 \$/m². Sexda 1 avtobus uchun qilinadigan o'rtacha harajatni hisoblang.

Yechishda quyidagi 5-jadvaldan foydalaning.

Avtobus yig'ish sexida 1 avtovusga qilinadigan sarflar hisob-kitob jadvali

№	Sarf turi	hajmi	1 birlik bahosi	Harajat		O'rtacha 1 avtobusga	
				\$	Ming so'm	\$	Ming so'm
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Po'lat	1020 kg	1110 \$/t				
2.	Alyuminiy	600 kg	1230 \$/t				
3.	Plastikoyna	790 kg	1150 \$/t				
4.	Rezina	450 m ²	45 \$/m ²				
5.	Shnur	500 m	8 \$/m				
6.	Oyna	500 m ²	210 \$/m ²				
	Jami:	x	x				

4-Topshiriq. Faraz qiling siz firma ochmoqchisiz. Bunda siz firma nomini belgilashingizda (firma nomida) qanday belgilar bo'lmasligi lozim.

5-topshiriq. Korxona 5-jadvalda ko'rsatilgan dastur asosida A va B mahsulotlarni ishlab chiqaradigan bo'lsa, uzrli sabablar bilan ish vaqtini yo'qotish vaqtning o'rtacha 10%ini, kunlik me'yorni bajarish koeffitsiyenti - 1,2 ni, yillik ish kunlari – 300 kunni, smena davomiyligi – 8 soatni tashkil etsa, korxona uchun zaruriy ishchi kuchi sonini toping.

Korxonada A va B mahsulotlar ishlab chiqarish dasturi

Mahsulot	Yillik ishlab chiqarish soni, dona	1 donasiga vaqt sarfi, soat	Ish kunlari, kun
1	2	3	4
A	30000	4	300
	50000	4	300
	40000	4	300
	35000	4	300
	25000	4	300
B	30000	5	300
	50000	5	300
	40000	5	300
	35000	5	300
	25000	5	300

Topshiriqni bajarishda 7-jadvaldan foydalaning.

7-jadval

Korxonada A va B mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ish kuchi sonini hisoblash

Mahsulot	Yillik ishlab chiqarish soni, dona	1 donasiga vaqt sarfi, soat	Ish kunlari, kun	Zaruriy vaqt, soat	Vaqt yo'qotish, soat	Me'yorni ortiq bajarish, soat	Ishlab chiqarish vaqti, soat	Kun	Taxminiy ishchi soni, kishi	Zarur ish kuchi soni, kishi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
A	30000	4	300							
	50000	4	300							
	40000	4	300							
	35000	4	300							
	25000	4	300							
B	30000	5	300							
	50000	5	300							
	40000	5	300							
	35000	5	300							
	25000	5	300							

6-Topshiriq. Qanday hollarda firma nomiga bo'lgan huquqning boshqa shaxsga o'tishi mumkin. Javobingizni izohlab bering.

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

5-6-MASHG'ULOTLAR. KORXONANI BOSHQARISH.

I. Darsning maqsadi: Talabalarda korxonani boshqarish, unda ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning tarkibi, ishlab chiqarish bo'g'inlari, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishni doir ko'nikmalar berish.

II. Darsning rejasi:

1. Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning ob'ektiv zarurati.
2. Korxonani boshqarishning zamonaviy tamoyillari, shakllari va uslublari.
3. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarish.
4. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida korxonani ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish yo'llari.
5. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning o'rni

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 19, 22, 24, 27, 29, 32, 34

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarining qanday shakllari mavjud?

- A. Chiziqli, funksional, rejali, matrisali
- B. Chiziqli, funksional, aralash, xarajatli
- D. Chiziqli, funksional, chiziqli-shtabli, chiziqli-funksional, maqsadli-dasturli
- E. Funksional, aralash, demokratik, matrisali

2. Korxonaning boshqarish uslublari qanday turlarga bo'linadi?

- A. Iqtisodiy, ijtimoiy–ruhiy, matrisali
- B. Tashkiliy–ma'muriy, iqtisodiy, demokratik
- D. Tashkiliy–ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy–ruhiy
- E. Iqtisodiy, tashkiliy–ma'muriy, ilmiy

3. Qaysi javobda boshqarishning faqat iqtisodiy usullari ko'rsatilgan?

- A. Soliq, baho, ish xaqi, ogohlantirish, boj to'lovlari
- B. Kredit, soliq, litsenziya, baho, so'rovnoma
- D. Kredit, soliq, boj to'lovlari, baho, ogohlantirish
- E. Kredit, soliq, litsenziya, baho, boj to'lovlari

4. Ishlab chiqarishni boshqarish qaysi qismlardan tarkib topadi?

- A. Mehnat vositalarini boshqarish, personalni boshqarish
- B. Mehnat vositalarni boshqarish, moliyani boshqarish
- D. Personalni boshqarish, moliyani boshqarish
- E. Personalni boshqarish, kreditni boshqarish

5. Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonlariga nimalar kiradi?

A. Ishchi kuchini boshqarish, texnologiyani boshqarish, samaradorlikni boshqarish, xorijiy firmalarni boshqarish

B. Ishlab chiqarishni boshqarish; ishlab chiqarish vositalarini boshqarish, texnologiyani boshqarish; samaradorlikni boshqarish

D. Ishlab chiqarishni boshqarish; texnologiyani boshqarish; samaradorlikni boshqarish; ruhiyatni boshqarish

E. Ishlab chiqarish vositalarini boshqarish; ruhiyatni boshqarish; ishchi kuchini boshqarish, shaxslarni boshqarish

6. Korxona boshqaruvida ilmiy-texnika taraqqiyoti qanday bosqichlarga bo'linadi?

A. Ishlab chiqarishni texnik rivojlantirish; harajatlarni hisoblash; loyiha tahlili

B. Amaliy tadqiqotlar; ishlab chiqarishni texnik rivojlantirish; harajatlarni hisoblash

D. Nazariy ilmiy izlanishlar; amaliy tadqiqotlar; ishlab chiqarishni texnik rivojlantirish

E. Nazariy ilmiy izlanishlar; loyiha tahlili; ishlab chiqarish strategiyasini belgilash

7. Quyidagilardan qaysi biri xodimlarni boshqarish tamoyillariga (prinsiplariga) kiradi?

A. Tezkorlik va ilmiylik

B. Samara

D. Foyda

E. Xarajat

8. Jamiyatda boshqarish tizimiga nimalar kiradi?

A. Korxona ichidagi bo'limlarni boshqarish

B. Butun boshli xalq xo'jaligini boshqarish

D. Har bir tamoqlarni boshqarish va korxonalarni boshqarish

E. Xalq xo'jaligini, tarmoqni, korxonani, bo'limni boshqarish

9. Boshqaruv mehnati samaradorligining mezoni nima bilan o'lchanadi.?

A. Boshqaruv darajasi bilan

B. Samaraning boshqaruv xarajatlaridan pastligi bilan

D. Samaraning boshqaruv xarajatlaridan yuqoriligi bilan

E. Foyda bilan

10. Boshqaruv organi nima?

A. Ijtimoiy mehnat taksimoti, xususan, boshqaruv mehnati taqsimoti natijasida vujudga kelgan boshqaruv apparati


B. Tashkilot

D. Havfsizlik xizmati

E. Biror boshqaruv tizimi tarkibiga kiruvchi muassasa, tashkilot

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Quyida keltirilgan chizmani chizib oling va uning mohiyatini tushuntirib bering.



4-rasm. Korxona organlari boshqaruv tizimi

2-Topshiriq. Siz qanday rahbar bo'la olasiz? Guruh talabalari misolida boshqaruv maktabi g'oyalaridan foydalaning (faraz qilish asosida).

8-jadval

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti III bosqich __-guruh talabalari uchun boshqaruv maktabi g'oyalarini tadbiq etish.

№	Talabaning familiyasi va ismi	Boshqaruv maktablari					
		I	II	III	IV	I, II, III, IV	O'z fikringiz
1.							
2.							
3.							

3-Topshiriq. Guruh rahbari (sardori)ning sotsiogrammasini tuzing.

Bunda $\bar{X} = \frac{\sum B}{n}$ formuladan foydalaning.

Agar $\bar{X} \in (0 ; 3)$ bo'lsa, rahbarlik faoliyati – “Qoniqarsiz”

$\bar{X} \in [3 ; 3,7)$ bo'lsa, rahbarlik faoliyati – “Qoniqarli”

$\bar{X} \in [3,7 ; 4,3)$ bo'lsa, rahbarlik faoliyati – “Yaxshi”

$\bar{X} \in [4,3 ; 5]$ bo'lsa, rahbarlik faoliyati – “A'lo” daraja bilan baholanadi.

Hisob-kitob jadvali

		Sifatlar	Sifat raqam- lari	Ballar				
				1	2	3	4	5
O'rtacha	Sosial va ishchanlik sifatleri (4,4)	Prinsipialligi	1					
		Burchini bilishi	2					
		Ishga prinsipial yondoshuvi	3					
		Uddaburonligi	4					
		Irodasi	5					
		Matonati	6					
		Ishni qiyomiga yetkazish qobilyati	7					
		O'ziga nisbatan talabchanlik	8					
		Qo'l ostidagilarga nisbatan talabchanlik	9					
		Ma'suliyatni sezish darajasi	10					
		Mehnat unumdorligi	11					
		Mehnat sifati	12					
		Dadillik,qat'iylik darajasi	13					
		G'ayratlilik	14					
		Mehnatsevarligi	15					
		Jamoani jipslashtirish qobilyati	16					
		Vijdonlilik	17					
		Intizomlilik	19					
		Jamoda yuqori darajadagi intizomni saqlay olish qobiliyati	19					
		Qaror qabul qilishdagi mustaqilligi	20					
		Kishilar tashvishi haqida o'ylashi	21					
		tashabbuskorligi	22					
Kasbiy mahorati va bilimi		Novatorligi	23					
		Ish tajribasi	24					
		Texnika va texnologiya sohasini bilish darajasi	25					
		Iqtisodiyot sohasini bilish darajasi	26					
		Boshqarish sohasini bilish darajasi	27					
O'rtacha ball	Kasbiy mahorati va bilimi (4,5)	Psixologiyani bilish darajasi	28					
		Sotsiologiyani bilish darajasi	29					
		Pedagogikani bilish darajasi	30					
		Bajarayotgan ishi sohasidagi bilimlarni bilish darajasi	31					
		Umumiy ma'lumoti	32					
		Madaniyatlilik	33					
		O'z mahoratini oshirishga bo'lgan intilishi	34					
		Qo'l ostidagi xodimlar malakasini oshirishga munosabati	35					

	Shaxsiy sifatлари	Sog'lig'i	36					
		Ish qobiliyati	37					
		O'z qadrini bilishi	38					
		Adolatliligi	39					
		Halolligi	40					
		O'zini tuta bilish, sabrliligi	41					
		Murakkab, og'ir vaziyatdan chiqqa olish qobiliyati	42					
		Kirishimliligi	43					
		Axloqiy barqarorligi	44					
		Kamtarinligi	45					
		Hazilkashligi	46					
	Obro'si	Mutaxassis sifatida	47					
		Rahbar sifatida	48					
		Tarbiyachi sifatida	49					
		Inson sifatida	50					

4-Topshiriq. O'zingizni baholang. Moliyaviy tavakkalchilikka moyilmisiz?

10-jadval

Hisob-kitob jadvali

№	Savollar va javoblar	Ball
1.	Siz TV-o'yinda g'olib chiqdingiz. Qanday yutuqni olgan bo'lar edingiz? a) 2000 so'm naqd pulni b) 4 ming so'mni yutishga umid bog'lab, 40 foizli yutuqni olardim d) 10 ming so'mni yutishga umid bog'lab, 20 foizli yutuqni olardim e) 100 ming so'mni yutishga umid bog'lab, 2 foizli yutuqni olardim.	
2.	Siz 5000 so'm yutqazdingiz. Yutqazgan pulingizni tiklash uchun 50 foizli umid bilan necha so'm tikkan bo'lar edingiz? a) hech narsa b) 1000 so'm d) 2500 so'm e) 5000 so'm	
3.	Siz aksiya sotib olganingizdan keyin uning kursi to'satdan 15 foizga oshdi. Siz nima qilgan bo'lar edingiz? a) aksiyani sotardim b) qo'shimcha sotib olmasdan yoki sotib yubormasdan ushlab turar edim d) yana aksiya sotib olar edim	
4.	Sizdagi aksiyalarning kursi bir oydan sung tushib ketdi. Biroq, aksiyalarning nufuzi balandligicha qolgan. Siz nima qilgan bo'lar edingiz? a) Yana ko'proq yutqazmaslik uchun sotib yuboraman b) Shu aksiyalarni ushlab turaman va yana asli narxiga qaytishini kutaman d) Yana aksiya sotib olaman	
5.	Yilning oxirida Sizga ikki xil mukofotni tanlashingizga imkon berishdi. Siz qaysi birini tanlab olardingiz?	
	a) 150 000 so'mni	
	b) 50 foizli ishonchlilik darajasi bilan 15 foizli dividend beruvchi 150 000 so'mli aksiyani	

5-Topshiriq. Siz qanchalik o'zingizni boshqara olasiz? Quyidagi test savollariga xolisona javob bering.

Hisob-kitob jadvali

№	Savollar va javoblar	Javoblar			
		Hech qachon	Ba'zan	Ko'pincha	Har doim
1.	Tayyorgarlik ishlari uchun ish kunining boshida men zahiraga vaqt ajrataman				
2.	Nimaniki birovga topshirish mumkin bo'lsa, boshqalarga topshiraman				
3.	Har qanday rasmiy hujjatni bir o'tirishda tayyorlayman				
4.	Vazifa va maqsadlarimni men yozma ravishda qayd etaman				
5.	Har kuni oldimda turgan ishlarning asosiylarini ko'rsatgan holda ro'yxat tuzaman.				
6.	Ish kunini begona qo'ng'iroqlar, kutilmagan uchrashuvlardan ozod etishga harakat qilaman.				
7.	Kunduzgi ish hajmini o'z ishim, qobiliyatimni hisobga olgan holda taqsimlashga harakat qilaman				
8.	Mening rejamda dolzarb muammolarni yechish uchun bo'sh vaqt qoldirilgan				
9.	Men uncha ko'p bo'lmagan muhim muammolarni yechishga diqqatimni jamlayman.				
10.	Mening vaqtim boshqalar olisha boshlagan taqdirimda «yo'q» deb ayta olaman, men boshqa muhim ishlarni bajarishim lozim.				

6-Topshiriq. Siz qanchalik aqli rasosiz? Quyidagi test savollariga xolisona javob bering.

Hisob-kitob jadvali

№	Savollar	Javoblar	
		ha	yo'q
1.	Siz arzimagan sabab bilan o'zingizni boshqara olmay qolasizmi?		
2.	Siz jismoniy jihatdan kuchli kishining jahlini chiqarishdan qo'rqasizmi?		
3.	Sizga diqqat qaratishlari uchun janjal qilasizmi?		
4.	Katta tezlikda yurish sizga yoqadimi?		
5.	Siz dori-darmon ichib yurasizmi?		
6.	Hohlaganingizni olish uchun, siz hamma narsaga tayyormisiz?		
7.	Katta ishlar sizga yoqadimi?		
8.	Siz mashhur bo'la olasizmi, nima deb o'ylaysiz?		
9.	Siz oftobda o'tirishni yoqtirasizmi?		
10.	Agarda yutqazayotganingizni his etayotgan bo'lsangiz, «o'yindan chiqa» olasizmi?		
11.	Sizda ko'p yeyish odati bormi?		
12.	Sizga nima sovg'a qilishlarini oldindan bilishni hohlaysizmi?		

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

7-MASHG'ULOT. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga rejalashtirishning mohiyati, rejalashtirishning turlari, biznes reja, uning korxona boshqaruvidagi ahamiyati va uni tuzish, korxonani rivojlantirish strategiyasini o'rgatish.

II. Darsning rejasi:

1. Rejalashtirishning uslubiy asoslari va korxonada rejalashtirish turlari.
2. Rejaviy qarorlarni tayyorlash ketma-ketligi.
3. Korxona faoliyatini biznes-rejalashtirish.
4. Biznes-rejani korxona rivojlantirish strategiyasi bilan bog'liqligi.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 21, 24, 28, 30, 32, 34, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Rejalashtirishning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A. Foyda va xarajatlar funksiyalarini tartibga solish jarayoni
- B. Maqsadga yetish uchun qilingan barcha xarajat elementlarini tartibli asosda hisoblash va unga mos strategik tadbirlar ishlab chiqish jarayoni
- D. Xarajatlar funksiyasini ishlab chiqish jarayoni
- E. Maqsadni belgilash, unga yetish vositalarini aniqlash va harakat yo'llari to'g'risida muntazam ravishda dastur ishlab chiqarish jarayoni

2. Rejalashtirishning asosiy tamoyillariga quyidagilardan qaysi kiradi?

- A. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; uzgaruvchanlik; optimallik; kam xarajatlilik
- B. Ilmiylik; uzluksizlik; o'zgaruvchanlik; optimallik, kam xarajatlilik
- D. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; o'zgaruvchanlik; optimallik
- E. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; o'zgaruvchanlik; foydalilik

3. Bashoratning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Bashorat korxonaning kelgusida ahvoli va uni amalga oshirish to'g'risidagi ilmiy asoslangan mulohazadir
- B. Bashorat korxonaning kelgusida ahvoli va uni amalga oshirish to'g'risidagi biznes-rejasidir
- D. Bashorat korxonaning biznes-rejasidir
- E. Bashorat korxonaning utmishdagi ahvoli hisobga olingan ilmiy asoslarni muhim natijalaridir

4. Korxonaning rejalari bajarilish muddatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- A. Ishlab-chiqarish; tijorat; texnik rivojlantirish; qo'llab-quvvatlash; moliya

- B. Operativ-kalendar; joriy; o'rta muddatli; strategik
- D. Korxona darajasidagi; sexlar darajasidagi; funksional bo'limlar va laboratoriyalarlar; uchastka va brigadalar
- E. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha; ishlab chiqarishni qamrab olgan rejalar; kelajakda ishlab chiqarishni loyihalashtiradigan rejalar

5. Korxona rejaları belgilangan funksiyalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- A. Korxona darajasidagi; sexlar darajasidagi; funksional bo'limlar va laboratoriyalarlar; uchastka va brigadalar
- B. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha; ishlab chiqarishni qamrab olgan rejalar; kelajakda ishlab chiqarishni loyihalashtiradigan rejalar
- D. Ishlab-chiqarish; tijorat; texnik rivojlantirish; qo'llab-quvvatlash; moliya
- E. Operativ-kalendar; joriy; o'rta muddatli; strategik

6. Korxonada bajarish darajasi bo'yicha rejalar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Ishlab-chiqarish; tijorat; texnik rivojlantirish; qo'llab-quvvatlash; moliya;
- B. Operativ-kalendar; joriy; o'rta muddatli; strategik
- D. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha; ishlab chiqarishni qamrab olgan rejalar kelajakda ishlab chiqarishni loyihalashtiradigan rejalar
- E. Korxona darajasidagi; sexlar darajasidagi; funksional bo'limlar va laboratoriyalar; uchastka va brigadalar

7. Ishlar va mahsulotlarning turlari bo'yicha korxona rejaları qanday turlarga bo'linadi?

- A. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha; ishlab chiqarishni qamrab olgan rejalar; kelajakda ishlab chiqarishni loyihalashtiradigan rejalar
- B. Korxona darajasidagi; sexlar darajasidagi; funksional bo'limlar va laboratoriyalar; uchastka va brigadalar
- D. Ishlab-chiqarish; tijorat; texnik rivojlantirish; qo'llab-quvvatlash; moliya
- E. Operativ-kalendar; joriy; o'rta muddatli; strategik

8. Korxona taraqqiyotining bosh yo'nalishi va uning maqsadini to'g'ri tanlash qanday omillarga bog'liq?

- A. Asosiy, maxsus
- B. Joriy, hisobot
- D. Ichki va tashqi
- E. Ichki, tashki, maxsus

9. Biznes rejada nima ko'rsatiladi?

- A. Korxonaning tarkibi
- B. Korxonaning hisobotlari
- D. Korxonaning mablag'lari
- E. Korxonaning rivojlanish strategiyasi

10. Korxonaning bo'lim va xizmatlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish yullarini ifodalovchi strategiya nima deb ataladi?

- A. Maxsus strategiya
- B. Funksional strategiya
- D. Mujassamlashtirilgan strategiya
- E. Diversifikatsiyalashgan strategiya

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. O'z korxonangiz misolida quyidagi biznes-rejani to'ldiring.

Vazirlik (qo'mita, konsern) nomi _____

BIZNES – REJA

Firmaning nomi _____

Samarqand – 2008

1. Kirish (xulosa), ish maqsadi

2. Firmaning tavsifi

1. Firmaning to'liq nomi: _____
2. Manzilgohi: _____
3. Korxonaning ish boshlash muddati: _____
4. Xususiylashtirish vaqti: _____
5. Firmaning statusi: _____
6. Firmaning ish faoliyati, uning turi: _____
7. Asosiy maqsad va vazifalar: _____

3. Firmaning tashkiliy tuzilishi

3.1. Firma rahbariyati

№	Familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi	Ma'lumoti	Maoshi (so'm)

3.2. Firma mutaxassislari

№	Qanday yangi mutaxassisliklar kerak	Qanday mutaxassisliklar (mansablar) o'zgartirishlashi kerak

3.4. Ishlab chiqarish yoki xizmatlar

4. Marketing tahlili

№	Ko'rsatkichlar	1-segment	2-segment
1.	Iste'molchilar tavsifi (yoshi, jinsi, daromadi)		
2.	Iste'mol hajmi		
3.	Iste'molchilarning geografik joylashuvi		
4.	Tovarlarga yoki xizmatlarga bo'lgan talab darajasi		
5.	Tovarlarga yoki xizmatlarga bo'lgan talab darajasi		
6.	Tovarlarga yoki xizmatlarning, iste'molchilarning talab darajasi		

4.1. Mahsulot yoki xizmatlar

№	Tovar (xizmat) nomi	Tovar (xizmat) nomi haqida ma'lumot	Tovar (xizmat) birligining bahosi, (so'm)	Tovar (xizmat) bilan iste'molchilarni tanishtirish yo'llari	Tovar (xizmat) larni taqsimlash yo'llari	Segmentdagi maqsadli marketing
1						
2						
3						

4.2 Marketing matritsasi (mahsulotlar , xizmatlar)

№	Tovar (xizmat)lar nomi	1- segment	2- segment	3- segment	4- segment
1					
2					
3					

5. Firma uchun raqobat tahlili

5.1 Raqobatchilar tahlili

Raqobat-chilar-ning joylashgan joyi, nomi	Xizmat ko'rsa-tadigan bozori	Mahsulot (xizmat)lar haqida ma'lumot	Taqsi-mot, yetkazib berish va reklama	Narx-lari (so'm)	Daro-mad-lari	Kuchli tomon-lari	Kuchsiz tomon-lari

5.2 Firma strategiyasini belgilovchi natijalar


№	Mahsulot (xizmat) nomi	Maqsadli bozor	Firmaning strategiyasini belgilaydigan raqobat shartlari

6. Operativ (kundalik) axborot

6.1. Mahsulot (xizmat) va kutilayotgan sotuv hajmi

№	Mahsulot (xizmatlar) nomi	O'lchov birligi	Mahsulot (xizmat) soni, hajmi	Tovar (xizmat) birligining sotuv bahosi (so'm)	Sotuv hajmining umumiy qiymati (so'm)

2-Topshiriq. Korxonada reja bajarilishini chizmasini chizing va tushuntirib bering.



5-rasm. Korxonada reja bajarilishi

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshirlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

8-MASHG'ULOT. ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY SAMARADORLIGI

I. Darsning maqsadi: Talabalarga samaradorlik tushunchasi mohiyati, unga ta'sir etuvchi omillar, samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari, samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini o'rgatish.

II. Darsning rejas:

1. Bozor munosobatlari sharoitda samaradorlikning o'rni va ahamiyati.
2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari.
3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 19, 22, 24, 26, 28, 31, 33

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan korxona qanday manfaatlarga ega bo'ladi?

- A. Imijini mustahkamlaydi; xodimlar ahvoli yaxshilanadi; xarajatlarni kamaytiradi
- B. Barqarorlikka erishadi; imidjini mustahkamlaydi; raqobatchilarni o'rganadi
- D. Barqarorlikka erishadi; xodimlarning ahvoli yaxshilanadi; xarajatlarni kamaytiradi
- E. Barqarorlikka erishadi; imijini mustahkamlaydi; xodimlar ahvoli yaxshilanadi

2. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

- A. Sarflangan vaqt miqdori yaratilgan mahsulot qiymatiga bo'linadi
- B. Yaratilgan mahsulot qiymati sarflangan vaqt miqdoriga bo'linadi
- D. Yaratilgan mahsulot qiymati asosiy mahsulot qiymatiga bo'linadi
- E. Sarflangan vaqt miqdori jami resurslarning qiymatiga bo'linadi

3. Xarajatlar rentabelligi qanday aniqlanadi?

- A. Korxona foydasi avanslashgan kapitalga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi
- B. To'la tannarx korxona foydasiga bo'lina va 100 ga ko'paytiriladi
- D. Korxona foydasi to'la tannarxga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi
- E. Korxona foydasi mehnat xaqi xarajatlarga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi

4. Korxonada iqtisodiy samaradorlikni asosiy mezoni nima hisoblanadi?

- A. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib ko'proq va sifatliroq mahsulot ishlab chiqarish
- B. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib, korxona ishlovchilarning moddiy farovonligini oshirishga erishish

- D. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib korxona xarajatlarini kamaytirish
 E. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib bozorda ustunlikka erishish
- 5. Xarajatlar konsepsiyasi bo'yicha iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi nima hisoblanadi?**
- A. Tannarx
 B. Mehnat unumdorligi
 D. Rentabellik
 E. Xarajatlar samaradorligi
- 6. Rentabellikning iqtisodiy ma'nosi nima?**
- A. Kam xarajat qilib ko'proq foyda olish
 B. Iste'mol kilingan resurslar sig'imi
 D. Iqtisodiy samaradorlik darajasi
 E. Iste'mol qilingan resurslar qaytimi
- 7. Xalq xo'jaligining umumiy samaradorligi qanday aniqlanadi?**
- A. Milliy daromadlarni yillik o'sishi sarflangan kapital xarajatlarining o'sishiga bo'linadi
 B. Sarflangan kapital xarajatlarining o'sishi milliy daromadning yillik o'sishiga bo'linadi
 D. Olingan foyda kapital xarajatlarning o'sishiga bo'linadi
 E. Olingan ish haqi kapital xarajatlarning o'sishiga bo'linadi
- 8. Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligi oshirishga olib keluvchi eng muhim omil quyidagilardan qaysi biri hisoblanadi?**
- A. Ishlovchilarning malakasi
 B. Fan-texnika taraqqiyoti
 D. Xorijiy investitsiyalar
 E. Davlatning xarajatlarga yordami
- 9. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng asosiy aniq omillariga qaysilar kiradi?**
- A. Foydani maksimallashtirish, ish haqini oshirish
 B. Foydani maksimallashtirish, xarajatlarini maksimallashtirish
 D. Foydani maksimallashtirish, xarajatlarini minimallashtirish
 E. Foydani maksimallashtirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini maksimallashtirish
- 10. Mehnat sig'imi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?**
- A. Mahsulot sotishdan olingan foyda tannarxga bo'linadi
 B. Mahsulot hajmi ishlovchilar soni ga bo'inadi
 D. Ishlovchilar soni mahsulotlar ichlab chiqarish tannarxiga bo'linadi
 E. Ishlovchilar soni mahsulot hajmiga bo'inadi

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Korxona faoliyatining bir necha variantlari berilgan (13-jadval). Barcha variantlar uchun doimiy harajatlar o'zgarmagan holatda va ishlab chiqarish hajmi sotish hajmiga teng bo'lganda, jadvalni to'ldirib, qaysi variant ko'proq samaraga ekanligini aniqlang.

Turlicha variandagi mahsulotlar ishlab chiqarishda kutilayotgan daromadlar
(harajatlar) hisob-kitobi

Variantlar	Soni, dona	Mahsulot birligi tannarxi, so'm/dona	Mahsulot birligi sotish bahosi, so'm/dona	Mahsulot sotishdan tushum, so'm	Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, so'm	Soliqlar va turli to'lovlar, so'm	Jami xarajatlar, so'm	Qo'shimcha olingan mahsulotdan tushum, so'm	Olingan foyda, so'm	Rentabellik, %
1	3	4	5	6=3*5	7=3*4	8	9=7+8	10	11=6+10-9	12=11/9*100
1	2000		190		300000		324400		90200	
2	2500	180	230			32350		87540		
3	2650	260		848000	689000		723480	63500		
4	3200	340	435	1392000		38570		110420		
5	3500			1890000	1435000		1486110		527340	
6	3800		420		1178000	43490			469070	

2-Topshiriq. Korxona 3 ta sexdan iborat bo'lib, har bir sex turli hajmga ega va turli mahsulot ishlab chiqaradi (14-jadval). Korxonaning qaysi sexida kishi boshiga olinadigan samara yuqoriroq ekanligini toping.

Korxona sexlarida 1 xodim hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha foyda holati
tahlili

Sexlar	Xodimlar soni, kishi	Mahsulot miqdori, tonna	Mahsulot birligi tannarxi, so'm/sentner	Mahsulot birligi sotish bahosi, so'm/sentner	Mahsulot birligidan foyda, so'm/sentner	Jami foyda, ming so'm	1 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha foyda, ming so'm
1	38	168	22400	35640			
2	45	254	10500	19850			
3	57	384	19800	32380			

3-Topshiriq. Tuman qishloq xo'jalik korxonalarida paxtachilikning yalpi foyda va mahsulot birligini sotishdan olingan foydani tahlil qiling (15-jadval).

Narpay tumani fermer xo'jaliklarida paxtachilikdan olingan foyda tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006 yil	2007 yil	2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
					miqdoriy, +/-	nisbiy, %
1.	Sotilgan paxta miqdori	tonna	35820	35870		
2.	Jami xarajat	mln so'm	9825	11274		
3.	Jami daromad	mln so'm	12209	13508		
4.	Foyda	mln so'm				
5.	1 tonna paxta tannarxi	ming so'm				
6.	1 tonna paxta sotish bahosi	ming so'm				
7.	1 tonna paxtadan olingan foyda	ming so'm				

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.****VIII. Savol-javoblar.****IX. Uyga vazifa.**

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

9-MASHG'ULOT. KORXONANING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQUVISH QUVVATI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga asosiy fondlar tushunchasi, ularning tarkibi, korxona faoliyatida tutgan urni, asosiy fondlardan foydalanish kursatkihlari, korxona ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullarini o'rgatish.

II. Darsning rejas:

1. Asosiy fondlar va ularning korxona faoliyatida tutgan o'rni.
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari.
3. Korxona ishlab chiqarish quvvati va uni hisoblash uslubi.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 22, 24, 27, 31, 33, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Korxonaning asosiy fondlari tarkibi qaysi guruhlariga bo'linadi?

- A. Ishlab chiqarish, zahira
- B. Ishlab chiqarish, moddiy, noishlab chiqarish
- D. Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, zahira
- E. Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish

2. Quyidagi belgilardan qaysi biri asosiy fondlarga to'g'ri keladi?

- A. O'z qiymatini mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi
- B. Ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtiroq etadi
- D. Ishlab chiqarishda uzoq vaqt ishtirok etib, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekin o'tkazadi
- E. O'z qiymatini mahsulotlari birdaniga o'tkazadi

3. Asosiy fondlarni baholashning qanday usullari mavjud?

- A. Tiklanish kiymati bo'yicha, koldik kiymati bo'yicha, bozor baxolar bo'yicha
- B. Boshlang'ich qiymati bo'yicha, tanlanish qiymati bo'yicha, bozor baholari bo'yicha
- D. Boshlang'ich qiymati bo'yicha, qoldiq qiymati bo'yicha
- E. Tiklanish kiymati bo'yicha, koldik kiymati bo'yicha, ekspert xulosasi bo'yicha

4. Amortizatsiya deb nimaga aytiladi?

- A. Asosiy fondlarni sotib olish jarayoniga
- B. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsuloti o'tkazish jarayoni
- D. Asosiy fondlarni sotib olish uchun baholash qiymatiga
- E. Asosiy fondlarni jismoniy eskirishiga

5. Asosiy fondlarning eskirishi qanday turlarga bo'linadi?

- A. Jismoniy, ma'naviy
- B. Jismoniy, intellektual
- D. Ma'naviy, moddiy
- E. Ma'naviy, amortizasiya

6. Fond qaytimi qanday aniqlanadi?

- A. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini urtacha yillik qiymatini bir yillik pul tushumiga bo'lib topiladi
- B. Bir yillik pul tushumini amortizatsiya ajratmalariga bo'lib topiladi
- D. Bir yillik pul tushumini asosiy ishlab chiqarish fondlarni o'rtacha yillik qiymatiga bo'lib topiladi
- E. To'g'ri javob keltirilmagan

7. Korxonaning moddiy bazasini quyidagilar tashkil qiladi?

- A. Asosiy va aylanma fondlar
- B. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, zahiralar
- D. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, foyda
- E. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, ish haqi va moddiy rag'batlantirish fondi

8. Asosiy fondlarni boshlang'ich qiymat bo'yicha baholashni qanday tushunasiz?

- A. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmui
- B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- D. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholash
- E. Natural va qiymat bo'yicha baholash

9. Asosiy fondlarni tiklanish qiymat bo'yicha baholashni qanday tushunasiz?

- A. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmui
- B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- D. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholash
- E. Natural va qiymat bo'yicha baholash

10. Asosiy fondlarni tiklanish qiymat bo'yicha baholashni qanday tushunasiz?

- A. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmui
- B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- D. Natural va qiymat bo'yicha baholash
- E. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholash

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Fermer xo'jaligi asosiy fondlari holatini tahlil qiling.

Zamin fermer xo'jaligida asosiy fondlar qiymatining o'zgarishi

T/r	Ko'rsatkichlar	2006 yil		2007 yil		2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %	Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Bino	3571,5		3601,9			
2.	Inshoat	624,8		723,2			
3.	Uzatish moslamalari	16,8		19,4			
4.	Mashina va uskunalari	2624,6		3722,1			
5.	Jihozlar	26,7		32,2			
6.	Transport vositalari	913,3		1307,2			
7.	Ko'p yillik o'simliklar	164,8		164,8			
8.	Boshqa asosiy vositalar	257,5		312,2			
	Jami		100		100		

2-Topshiriq. Amaliyot o'tagan xo'jaligingiz misolida moddiy-texnika resurslari holatini tahlil qiling.

_____ fermer xo'jaligi moddiy-texnika resurslari holati tahlili

T/R	Moddiy-texnika resursi	Ishlab chiqarilgan yili	Qiymati, ming so'm	Soni	Umumiy qiymati, ming so'm	Holati	Xizmat muddati
M.:	MTZ-80 traktori	2006	22450,0	1	22450,0	Ishchi	10 yil
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							

3-Topshiriq. Samarqand viloyatida avtomobil transporti bilan yuk tashish va yuk aylanmasi holatini tahlil qiling.

Samarqand viloyatida avtomobil transporti bilan yuk tashish va yuk aylanmasi holatini tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006 yil	2007 yil	2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
					Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Yuk tashish	mln. t.	29,8	32,9		
2.	Yuk tashish aylanmasi	mln t.-km	929,7	1102,7		
3.	1 tonna yuk tashishning o'rtacha masofasi	km				

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.****VIII. Savol-javoblar.****IX. Uyga vazifa.**

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

10-11-MASHG'ULOTLAR. KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga aylanma fondlar tushunchasi, aylanma mablaglar tushunchasi, ularning tarkibi, ulardan foydalanishni baholash, aylanma mablaglarni shakllantirish manbalari, ularning iqtisodiy ahamiyati va aylanuvchanligini tezlashtirish yullarini o'rgatish.

II. Darsning rejasi:

1. Aylanma mablag'lar tushunchasi va ularning iqtisodiy tabiati.
2. Aylanma mablag'lar tarkibi.
3. Korxona aylanma mablag'larini shakllantirish manbalari.
4. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari.
5. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligini tezlashtirish omillari va yo'llari.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 21, 24, 28, 30, 32, 34, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Korxonaning aylanma mablag'lari nimalardan tashkil topadi?

- A. Muomala fondlari, kelgusi davr xarajatlari
- B. Ishlab chiqarish aylanma fondlari, tugallanmagan ishlab chiqarish
- D. Ishlab chiqarish aylanma fondlari, muomala fondlari
- E. Muomala fondlari, mehnat kreditlari

2. Ishlab chiqarish aylanma fondlari o'zida nimalarni qamrab oladi?

A. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish; zahiralar

B. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari

D. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari; kelgusi davr harajatlari; ish haqi fondi

E. Muomala fondlari, kelgusi davr xarajatlari

3. Ishlatilishiga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Ishlab chiqarish aylanma fondlari; muomala fondlari
- B. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish; zahiralar
- D. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari
- E. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari

4. Ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?

A. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari

- B. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari
- D. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish; zahiralar
- E. Ishlab chiqarish zahiralar; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari; tayyor mahsulot; pul mablag'lari

5. Tashkil qilinish tamoyillariga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Me'yorlashtiriladigan; me'yorlashtirilmaydigan
- B. Ishlab chiqarish zahiralar; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari; tayyor mahsulot; pul mablag'lari
- D. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari
- E. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari

6. Shakllanish manbalariga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari
- B. Ishlab chiqarish zahiralar; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr harajatlari; tayyor mahsulot; pul mablag'lari
- D. O'z mablag'lari; qarzga olingan mablag'lar
- E. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish; zahiralar

7. Aylanma mablag'larning shakllanish manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Foyda; kreditlar; ish haqi fondi; aksiyalar miqdori; dotasiyalar; byudjet mablag'lari; qayta taqsimlash resurslar; kreditorlik qarzlari
- B. Foyda kreditlar; ustav kapitali; pay bo'naklari
- D. Foyda; kreditlar; ish haqi fondi; aksiyalar miqdori; dotasiyalar
- E. Byudjet mablag'lari; qayta taqsimlash resurslar; kreditorlik qarzlari

8. Aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarga qaysilar kiradi?

- A. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi; o'z va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati
- B. O'z va qarzga olingan aylanma mablag'larning nisbati; korxonaning to'lovga qobiliyatligi; korxonaning likvidligi; ish haqi bo'yicha xarajatlar miqdori; aylanma mablag'larning aylanuvchanligi
- D. O'z aylanma mablag'lari miqdori; o'z va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati; korxonaning to'lovga qobiliyatligi; korxonaning likvidligi; aylanma mablag'larning aylanuvchanligi
- E. To'g'ri javob yo'q

9. Korxona aylanma mablag'larining aylanuvchanligini tezlashtirish omillariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Investisiya faoliyatini samarali shakllarini tanlash; xarajatlarni kamaytirish; aylanma mablag'larni ko'paytirish
- B. Ishlab chiqarish zahiralarini yaratish; xodimlarni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish; xorijiy investisiyalarni samarali jalb qilish yo'llarini tanlash
- D. Debitorlik qarzlarni o'z vaqtida qaytarish; investisiya faoliyatini samarali shakllantirishni tanlash; ish haqini oshirish
- E. Ishlab chiqarish zahiralarini yaratish; debitorlik qarzlarni o'z vaqtida qaytarish; investisiya faoliyatini samarali shakllantirishni tanlash

10. Quyidagi ta'riflarning qaysi biri aylanma mablag'larga tegishli?

A. Ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt qatnashib o'z qiymatini mahsulot qismlab o'tkazadi

B. Ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib o'z qiymatini to'laligicha mahsulot qiymatiga o'tkazadi

D. Tovar-pul munosabatlarining asosini tashkil qilib yangi korxonaning ustav kapitali hisoblanadi

E. Korxonani litsenziyalashning asosiy sharti hisoblanadi

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Hisobot davrida korxona aylanma mablag'lari qiymati 140 mln so'mni tashkil etdi. Aylanma mablag'lar tarkibida materiallarning salmog'i 25%ni tashkil etadi. Kelgusi yilida bitta Tovar ishlab chiqarish uchun material sarfini 15%ga kamaytirilishi rejalashtirilgan. Kelgusi yili material sarfida tejamkorlik hisobiga aylanma mablag'lar qiymati qancha bo'lishini hisoblang.

2-Topshiriq. Hisobot davrida korxonada rejalashtirilgan aylanma mablag'lar qiymati 38780 ming so'mni tashkil etdi. Aylanma mablag'larning bir aylanish davri – 35 kun. Kelgusi yili sotiladigan mahsulot hajmi 5%ga oshadi. Shunday holatda aylanma mablag'lar aylanish davri necha kunga qisqaradi? Yillik ish kunlari soni 315 kun deb oling.

3-Topshiriq. 2006 yilda ishlab chiqarilgan traktor quvvati 110 ot kuchi, og'irligi – 3,56 tonna bo'lgan. 2008 yilda 150 ot kuchi quvvatidagi traktorlar ishlab chiqarilib, og'irligi 10%ga oshdi. Qaysi modelda quvvatni oshirishda material kamroq ishlatilgan?

4-Topshiriq. Korxonada 65 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 6,5 tonna po'lat (205 ming so'm/t), 1725 m² gazlama (3000 so'm/m²), simlar – 600 pogon metr (23000 so'm/pog. metr), kleylovchi vosita – 800 kg (7800 so'm/kg). Bir birlik mahsulotning tannarxini hisoblang.

$$M_1 = \frac{\sum m_i \cdot p_i}{q}$$

Bu yerda,

M_1 – 1 birlik mahsulot tannarxi

m_i – i mahsulot bo'yicha sarf

p_i – i mahsulot qiymati

q – ishlab chiqarilgan mahsulot soni

5-Topshiriq. Fermer xo'jaligi aylanma vositalarini tahlil qiling.

19-jadval

Zamin fermer xo'jaligida aylanma fondlar qiymatining o'zgarishi

T/r	Ko'rsatkichlar	2006 yil		2007 yil		2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %	Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Pul mablag'lari	9234		12871			
2.	Yoq'ilg'i	4215		6928			
3.	Urug'lik	5410		7894			
4.	Tara	1541		2487			
5.	Qiymati past ish qurollari	1647		2149			
6.	Yem-hashak	7841		9808			
7.	Ko'chatlar	974		1241			
8.	boshqalar	12487		13871			
	Jami		100		100		

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

12-MASHG'ULOT. KORXONADA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO'LASH.

I. Darsning maqsadi: Talabalarda xodimlar, xodimlarni tanlash, xodimlar tarkibi, rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar, mehnat unumdorligi tushunchasi, mehnat unumdorligi konsepsiyasi va uning korxona faoliyatida tutgan urni, mehnatga haq to'lash va uning ahamiyati haqida kunikmalar paydo qilish.

II. Darsning rejasi:

1. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlarni tanlash tamoyillari.
2. Mehnat unumdorligi kontsepsiyasi va uning korxona hayotidagi ahamiyati.
3. Mehnatga haq to'lashning alohida muhim shartlari va korxonada ish xaqini tartibga solish.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 20, 24, 28, 30, 31, 34, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Korxona xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi nimalarni o'z ichiga oladi?

- A. Rahbarlar; xizmatchilar; mutaxassislar; yordamchi xodimlar
- B. Ishlab chiqarish personali; rahbarlar; xizmatchilar; marketing bo'limi xodimlari
- D. Ishlab chiqarish personali; noishlab chiqarish personali; rahbarlar; xizmatchilar
- E. Rahbarlar; mutaxassislar; ishlab chiqarish personali; yordamchi xodimlar

2. Korxonaning kadrlar siyosati o'z ichiga nimalarni oladi?

- A. Ishga olish; malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash
- B. Ishga olish; malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash; jamoada ruhiy muhit yaratish
- D. Ishga olish; ishdan bo'shatish; jamoada ruhiy muhit yaratish; malakani oshirish; haq to'lash
- E. Malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash; ishdan bo'shatish; ish bilan bandlikni oshirish

3. Ish haqi qanday turlarga bo'linadi?

- A. Bir ish joyidan; qo'shimcha
- B. Minimal; haqiqiy
- D. Aklad; mukofat
- E. Real; nominal

4. Tarif stavkasi nima?

A. Turli kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnatiga to'lanuvchi haqning mutloq o'lchami

B. Turli kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligida mehnatga to'lanuvchi haqining nisbiy o'lchami

D. Bir xil kategoriyada ishlovchilarning vaqt birligi ichidagi mehnatiga to'lanuvchi haqning nisbiy o'lchami

E. Barcha javob to'g'ri

5. Korxona personalini aniqlashga ta'sir qiluvchi omillarga nimalar kiradi?

A. Ishlab chiqarish me'yorlari; ishchilarning mehnat solig'i; malakali ishlovchilarning mavjudlik darajasi

B. Ishchilarning mehnat solig'i; ish haqi fondi; aholining mehnat bandligi darajasi

D. Ishchilarning mehnat solig'i; ishlab chiqarish me'yorlari; texnologik jarayonlar bo'yicha ish jarayonlari

E. Texnologik jarayonlar bo'yicha ish joylari; mulkdorning xoxishi; aholining daromad darajasi

6. Korxonada mehnatga haq to'lashning umumiy darajasi qaysi omillarga bog'liq bo'ladi?

A. Foydalilik; kadrlar siyosati; aholi turmush darajasi; xorijiy mamlakatlarga chiqish imkoniyatlari; davlat tomonidan belgilanadigan ish xaqi darajasi

B. Foydalilik; kadrlar siyosati; mahsulot tannarxi; mahsulot sotish hajmi; bozor talabi

D. Foydaliliku; kadrlar salohiyati; horijiy raqobatchilar ta'siri; mulkdorning hoxishi; baho

E. Foydalilik; kadrlar siyosati; ishsizlik darajasi; davlat va raqobatchilar ta'siri; jamiyatchilik ta'siri

7. Korxonada ish haqi tarkibi nimalardan tarkib topadi?

A. Ta'til uchun to'lov; o'smirlarga imtiyozli to'lovlar; ishlovchi aybi bilan bo'lmagan ish faoliyatining to'xtab qolish uchun to'lovlar

B. Tarif stavkalari; natural ish haqi; mukofat va rag'batlantirish; kompensasiyalar

D. Ishlagan vaqt uchun to'lov; ishlamagan vaqt uchun tulov; bir martalik rahbatlantirish; xodimning ijtimoiy ehtiyoji uchun to'lovlar

E. Mukofatlar; rag'batlantirish; moddiy yordam kompensasiyalar

8. Xodimlarni baholashning belgilab qo'yilgan tartibi nima deyiladi?

A. Attestasiya

B. Motivasiya

D. Kommunikasiya

E. Konsentratsiya

9. Korxonada noishlab chiqarish personallariga kimlar kiradi?

A. Asosiy va yordamchi tsexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari

B. Uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar

D. Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP)

E. Hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo)

10. Korxona personal tarkibining doimiylik koeffitsienti ($K_{p.s.}$) qanday topiladi?

- A. Ishga qabul qilinganlar o'rtacha yillik xodimlar soniga bo'linadi
- B. O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni o'rtacha yillik xodimlar soniga bo'linadi
- D. Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni o'rtacha yillik xodimlar soniga bo'linadi
- E. Ishdan bo'shatilganlar va ishga qabul qilinganlar yig'indisi o'rtacha yillik xodimlar soniga bo'linadi

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Korxonada o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni 600 kishidan iborat. Yil davomida o'z ixtiyori bilan (Ix) – 37 kishi, tartibbuzar sifatida (Tb) – 5 kishi ishdan bo'shatildi, nafaqaga (Nf) – 11 kishi chiqarildi, o'quv muassasalariga o'qishga kirganlar va armiya safiga chaqirilganlar (Ch) – 13 kishi, yuqori lavozimga va boshqa tarmoqqa (Tl) – 30 kishi o'tkazildi.

Ma'lumotlar asosida:

- 1. Xodimlarning hisobdan chiqarilish koeffitsiyentini (K_{ch} , %);
- 2. Xodimlarning qo'nimsizlik koeffitsiyentini (K_q , %) aniqlang.

2-Topshiriq. Korxonada mahsulot ishlab chiqarishga 12 minut sarflanadi, mazkur mahsulotni ishlab chiqarish uchun soatiga 5 ming so'm to'lanadi, bir oyda ish kunlari soni – 24 kun, smena davomiyligi – 8 soat. Bir oyda 1008 mahsulot ishlab chiqarildi.

Ma'lumotlar asosida:

- 1. Oy davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmini (dona);
- 2. Har bir mahsulot uchun o'rtacha qancha haq to'langanini (so'm);
- 3. Agar korxonada har bir oyda reja bajarilishi hisobiga yana 1,5% haq to'lanadigan bo'lsa, qancha mehnat haqi to'lanishini hisoblang (ming so'm).

3-Topshiriq. Fermer xo'jaligida mavjud mehnat resurslari holatini tahlil qiling.

20-jadval

Ozodbek nomli fermer xo'jaligi mehnat resurslari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2006 yil	2007 yil	2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
				Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Jami ishlovchilar	32	29		
	sh.j.: Xotin qizlar	19	17		
2.	Doimiy ishlovchilar	22	21		
3.	Vaqtincha ishlovchilar	10	8		
5.	Boshqaruv xodimlari	2	2		

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

13-14-MASHG'ULOTLAR. KORXONA FAOLIYATI HARAJATLARI, DAROMADI VA RENTABELLIGI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarda xarajat, tannarx va uni hisoblash usullari, baho va uning ishlab chiqarish xarajatlariga ta'siri, foyda va rentabellik tushunchalari, ularga ta'sir etuvchi omillar, rentabellikni oshirish yullari haqida ko'nikmalar hosil qilish.

II. Darsning rejası:

1. Tannarx - korxona ishlab chiqarish faoliyatidagi xarajatlarning muhim ko'rsatkichi.
2. Xarajatlarning tasniflanishi.
3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llari.
4. Baholar va ishlab chiqarish xarajatlariga ularning ta'siri.
5. Foyda va rentabellik ularning manbalari.
6. Foyda va ishlab chiqarish rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 19, 25, 28, 30, 33, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Mahsulot tannarxining tashkil qiluvchi jarayonlar quyidagi elementlar asosida qanday guruhlariga ajratiladi?

A. Mehnat haqi; ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar; ish va xizmatlar; amortizatsiya; boshqa xarajatlar

B. Moddiy xarajatlar; amortizatsiya; mehnat haqi; rahbarlarning shaxsiy xarajatlari; boshqa xarajatlar

D. Amortizatsiya; mehnat haqi; ehtiyot qismlar; sug'urta; boshqa xarajatlar

E. Moddiy xarajatlar; amortizatsiya; mehnat haqi; ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar; boshqa xarajatlar

2. Foydaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi ma'nosi nima?

A. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulot

B. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan ish haqi

D. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromad

E. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan rentabellik

3. Korxonadagi xarajatlar qaysi guruhlar bo'yicha tavsiflanadi?

A. Moddiy xarajatlar; amortizatsiya; mehnat xaqi; ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar; boshqa xarajatlar

B. Mahsulot tannarxiga elementlar bo'yicha kiritiladigan; aralash; moliyaviy natijalarga olib boradigan; sof foyda schyotiga olib boriladigan

D. Ish haqi; amortizasiya; umumxo'jalik va umumzavod xarajatlari; sug'urta; boshqa xarajatlar

E. Ish xaqi; amortizasiya; soliqlar; umumxo'jalik xarajatlari; boshqa xarajatlar

4. Korxona mahsulotiga qo'yiladigan baholar qaysi belgilarga ko'ra tasniflanadi?

A. Xizmat qilish sohalariga ko'ra; davlatning bahoga ta'siriga ko'ra; baho belgilash bosqichiga ko'ra; transport xarajatlarini qamrab olinishiga ko'ra; bahoga oid ma'lumotlarning tasnifiga ko'ra

B. Baho belgilash bosqichiga ko'ra; xarajatlarni qamrab olinishiga ko'ra; baho belgilash bosqichiga ko'ra; davlatning bahoga ta'siriga ko'ra; jahon bozoridagi baholar darajasiga ko'ra;

D. Davlatning bahoga ta'siriga ko'ra; xizmat qilish sohalariga ko'ra; bahoga oid ma'lumotlarning tavsiflanishiga ko'ra; talab darajasining qamrab olinishiga ko'ra; raqobatchilar baholariga ko'ra;

E. To'g'ri javob yo'q.

5. Korxona foydasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Yalpi foyda; sof daromad; qo'shimcha qiymat; sof mahsulot; sof qo'shimcha qiymat

B. Yalpi foyda; umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; soliq to'languncha bo'lgan foyda; sof foyda; sof daromad

D. Yalpi foyda; asosiy faoliyatdan olingan foyda; soliq to'languncha bo'lgan foyda; sof foyda

E. Yalpi foyda; sof daromad; sof foyda; sof mahsulot; qo'shimcha qiymat

6. Korxonada mahsulot sotishning rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. Olingan yalpi foyda sotilgan mahsulot pul tushumiga bo'linadi

B. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda uzoq muddatli aktivlar qiymatiga bo'linadi

D. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda xususiy kapitali qiymatiga bo'linadi

E. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda korxonaning barcha kapitali qiymatiga bo'linadi

7. Asosiy vositalar va axborotdan tashqari boshqa aktivlar rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda korxonaning barcha kapitali qiymatiga bo'linadi

B. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda uzoq muddatli aktivlar qiymatiga bo'linadi

D. Olingan yalpi foyda sotilgan mahsulot pul tushumiga bo'linadi

E. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda xususiy kapitali qiymatiga bo'linadi

8. Xususiy kapital rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda korxonaning barcha kapitali qiymatiga bo'linadi

B. Olingan yalpi foyda sotilgan mahsulot pul tushumiga bo'linadi

D. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda uzoq muddatli aktivlar qiymatiga bo'linadi

E. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda xususiy kapitali qiymatiga bo'linadi

9. Permanent kapital rentabelligi qanday aniqlanadi?

- A. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda xususiy kapitali qiymatiga bo'linadi
B. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda uzoq muddatli aktivlar qiymatiga bo'linadi
D. Soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda korxonaning barcha kapitali qiymatiga bo'linadi
E. Olingan yalpi foyda sotilgan mahsulot pul tushumiga bo'linadi

10. Quyidagi javoblarning qaysi birida korxona foydasiga ta'sir qiladigan ichki omillar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Mahsulot miqdori; sifati; ishlab chiqari xarajatlari
B. Mahsulot miqdori; sifati; raqobat
D. Taklif; talab; raqobat
E. Taklif; talab; ishlab chiqari xarajatlari

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Tuman fermer xo'jaliklaridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qiling va xulosa yozing.

21-jadval

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006 yi	2007 yil	2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
					Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Yer maydoni	ga	22386	22411		
2.	Mehnat resurslari	kishi	14543	11890		
3.	Asosiy fondlar qiymati	ming so'm	9816,5	11244,2		
4.	Jami pul daromadi	mln so'm	16611	20945		
5.	Jami xarajat	mln so'm	13787	17436		
6.	Foyda	mln so'm				
7.	Jami yetishtirilgan mahsulot					
-	Paxta	tonna	20130	21086		
-	G'alla	tonna	54865	55436		
-	Sabzavot	tonna	27448	29642		
8.	Rentabellik (+), zararlilik (-) darajasi	%				

2-Topshiriq. Tuman paxtachiligida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qiling va xulosa yozing.

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklari paxtachilik tarmog'i ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006 yil	2007 yil	2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
					Mutloq, +/-	Nisbiy, %
1.	Ekin maydoni	ga	15080	15300		
2.	Hosildorlik	s/ga	22,9	25,8		
3.	Yalpi hosil	tonna	34460	39420		
4.	Jami xarajat	mln so'm	11333	12396		
5.	Jami daromad	mln so'm	11702	14870		
6.	Yalpi foyda	mln so'm				
7.	1 tonna mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	ming so'm				
8.	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm				
9.	1 tonna mahsulot sotishdan foyda	ming so'm				
10.	1 ga yerga xarajat	ming so'm				
11.	1 ga yerdan daromad	ming so'm				
12.	1 ga yerdan foyda	ming so'm				
13.	Rentabellik darajasi	%				

3-Topshiriq. Tuman paxtachiligida 1 tonna paxta tannarxining o'zgarishini tahlil qiling va xulosa yozing.

Oqdaryo tumani fermer xo'jaliklarida 1 tonna paxta tannarxining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	2006 yil	2007 yildagi 1 ga yer xarajati va 2006 yildagi hosildorlik bo'yicha	2007 yil	O'zgarishi, (+/-)	Sh.j.	
					1 gektar yer xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1. 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	751,5	x	810,2		x	x
2. 1 ga ekin maydonidan olingan hosil, s/ga	22,9	x	25,8		x	x
3.1 tonna paxtaning tannarxi, ming so'm						

4-Topshiriq. Qishloq xo'jaligi korxonasida paxta ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy jihatdan o'zgarishini tahlil qiling va xulosa yozing.

24-jadval

Miyonqol fermer xo'jaligida paxtachilik tarmog'i xarajatlarining tarkibiy o'zgarishi tahlili, ming so'm

№	Xarajat moddolari	2006 yil		2007 yil		2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati	Salmog'i, %	Qiymati	Salmog'i, %	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Mehnat haqi va ajratmalar	3364,5		3049,9			
2.	Mineral o'g'itlar	2553,6		2601,1			
3.	Asosiy vositalarning eskirishi	1161,8		978,3			
4.	Urug'lik xarajatlari	1052,9		1185,4			
5.	Ish va xizmatlar	2856,2		2624,1			
6.	YoMM	532,5		414,3			
7.	Umum ishlab chiqarish xarajatlari	351,0		437,3			
8.	Boshqa xarajatlar	229,9		218,7			
	Jami xarajatlar		100		100		

5-Topshiriq. Korxonada 3 kvartal davomidagi mahsulot rentabelligini tahlil qiling.

25-jadval

Korxonada 3 kvartal davomidagi mahsulot ishlab chiqarish natijalari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Kvartallar		
			I	II	III
1.	Mahsulot miqdori	dona	1500	2000	1800
2.	1 mahsulot bahosi	so'm	600	600	600
3.	1 mahsulot tannarxi	so'm	500	520	480

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiq-larni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

15-16-MASHG'ULOTLAR. KORXONANING INVESTISIYAVIY FAOLIYATI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarda investisiya, loyiha, investitsiyaviy faoliyat, investitsiyaviy loyiha tushunchasi va uning samaradorligi, aniqlash yo'llari va uni baholash, loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish hakida ko'nikmalar hosil qilish.

II. Darsning rejasi:

1. Investitsiya va investitsiyaviy faoliyat tushunchalari.
2. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga kiritish sohalari.
3. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligini aniqlash.
4. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.
5. Korxonaning investitsiyaviy maqsadlarini amalga oshirishda pudrat tashkilotlari va fond yaratuvchi tarmoqlarning o'rni.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 20, 22, 24, 25, 29, 31, 33, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Qaysi javobda investisiyaga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A. Korxonaning aylanma mablag'lari
- B. Aksiyalar chiqarish va sotish
- D. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tadbir
- E. Foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital qo'yish

2. Investisiyalar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Nominal va real
- B. Moliyaviy va real
- D. Bo'linadigan va bo'linmas
- E. Aktiv va passiv

3. Investision faoliyat qanday turlarga bo'linadi?

- A. Yangi qurilish; obyektlarni kengaytirish; yangiliklarni joriy qilish
- B. Yangiliklarni joriy qilish; xorijiy investisiyalarni jalb qilish; xarajatlarni kamaytirish
- D. Obyektlarni kengaytirish; yangi qurilish; normativlarni joriy qilish
- E. Yangi qurilish; obyektlarni kengaytirish; normativlarni joriy qilish

4. Loyiha nima?

- A. Yangiliklarning biznes-rejasini ishlab chiqish
- B. Qandaydir ishni fikrlash, qog'ozga tushirish va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar smetasi

D. Qandaydir ishni fikrlash, qog'ozga tushirish va uni amalga oshirishni rejasini ishlab chiqish

E. Korxonaning biznes-rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish

5. Yangiliklarni qo'llash loyihalarini boshqarish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

A. Rejani loyihalash; uni amalga oshirish; natijalarni boshqarish; xarajatlarni loyihalash

B. Rejani ishlab chiqish; uni amalga oshirish; qayta ko'rib chiqish va tartibga solish

D. Rejani amalga oshirish; xarajatlar smetasini ishlab chiqish; loyihani sotish

E. Loyiha tayyorlash; amalga oshirish; natijalarni sotish

6. Investitsion loyihalar rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. Loyihani amalga oshirishdan olingan foyda jami kapital qiymatiga bo'linadi

B. Loyihani amalga oshirishdan olingan foyda loyihaga qiligan xarajatlarga bo'linadi

D. Loyihani amalga oshirishdan olinadigan foyda qiymati investisiyalar qiymatiga bo'linadi

E. Korxona yalpi foydasi investisiyalar qiymatiga bo'linadi

7. Korxonaning imiji – bu:

A. Xaridorlarning korxona to'g'risidagi fikri

B. Korxonaning afzallik taraflari

D. Korxonaning mashhurligi va haridorlarining kimlar ekanligi

E. Korxona o'z mizojlari doirasida erishgan obro'-e'tibori va nufuzi

8. Moliyaviy investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?

A. Qimmatbaho qog'ozlar, aktsiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo'yish

B. Pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritish

D. Biror mamlakatga moliyaviy qarz berish

E. Lizing shaklida biror korxonaga iqtisodiy yordam berish

9. Real investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?

A. Qimmatbaho qog'ozlar, aktsiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo'yish

B. Pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritish

D. Biror mamlakatga moliyaviy qarz berish

E. Lizing shaklida biror korxonaga iqtisodiy yordam berish

10. Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) qanday topiladi?

A. Foyda loyiha muddatiga ko'paytiriladi

B. Investitsiya qiymati foyda me'yoriga bo'linadi

D. Sof investitsiyalar loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimida bo'linadi

E. Iqtisodiy-matematik usullar bilan topiladi.

5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Korxona ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida yillik 15 foiz bilan 150 mln. so'm 10 yilga bankdan kredit oldi. Shartnoma sartida har yili umumiy

kredit summasining foizi bilan birga 10 foizini qaytarib to'lash belgilangan. Quyidagi jadval asosida korxonaning har bir yildagi kreditni qoplash summasini aniqlang.

26-jadval

Korxonada kreditni hisoblash jarayoni

Yillar	Olingan kredit	Yillik foiz	Qaytrib to'lash summasi	Kreditni qoplash summasi
U1	U2	U3	U4	U5
		1-yil=0-qator•15%	Shart bo'yicha	U5=U3+U4
0	150000000			
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				

2-Topshiriq. 1-topshiriq ordali quyidagi “Kreditni hisoblash summasi” formulasi yordamida har bir yil uchun qaytarib to'lash summasini aniqlang. Buning quyidagi formulalardan foydalaning:

$$K_{hk} = \text{“Kreditni hisoblash koeffitsiyenti”} = \frac{i \cdot (1+i)^n}{(1+i)^n - 1}$$

$$K_{yq} = \text{“Yillik kreditni qoplash qiymati”} = K \cdot K_{hk}$$

Bu erda, i -foiz (punkt ko'rinishida),

n -yillar soni (kreditni qaytarish muddati).

Qaysi usul bilan kreditni qaytarish maqbulroq?

27-jadval

Korxonada kreditni hisoblash jarayoni

Yillar	Olingan kredit	Yillik foiz	Qaytrib to'lash summasi	Kreditni qoplash summasi
U1	U2	U3	U4	U5
0	150000000	U3=U2•15%		
1	142612190,6=150000000-U4			29887809,38
2				29887809,38
3				29887809,38
4				29887809,38
5				29887809,38
6				29887809,38
7				29887809,38
8				29887809,38
9				29887809,38
10				29887809,38
Jami				298878093,8

3-Topshiriq. Fermer xo'jaligi sut sog'ish agregatlarini 150 mln so'mga sotib oldi. Xo'jalik 100 bosh sigirdan o'rtacha 3000 kg (30 sentner) sut sog'ib oladi. 1 sentner sut tannarxi sigirlar qo'lda sog'ilganda – 13000 so'm, mashinada sog'ilganda – 12000 so'mni tashkil etgan. Ma'lumotlar asosida agregatning qoplanish muddatini hisoblab toping. Bunda quyidagi formuladan foydalaning:

$$M = \frac{S}{(T_0 - T_1) \bullet V_s}$$

Bu yerda, M – agregatning qoplanish muddati, yil;
 S – agregat qiymati, so'm;
 T_0 – agregat sotib olingunga qadar sut tannarxi, so'm/s;
 T_1 – agregat sotib olingandan keyin sut tannarxi, so'm/s;
 V_s – sut hajmi, s.

4-Topshiriq. Fermer xo'jaligi g'alla o'ruvchi kombayn sotib olmoqchi, xo'jalik oldida 3 ta variant bor: Yenisey (Rus) kombayni – 55 mln so'm, Keys (USA) kombayni – 88 mln so'm, KSA (Ger) kombayni – 71 mln so'm. Kombaynlar yillik quyidagi quvvatga ega: Yenisey kombayni – 600 tonna, Keys kombayni – 1200 tonna, KSA kombayni – 840 tonna. 1 tonna g'alla o'rilganligi uchun 50 ming to'lanadi. Xarajatlar esa quyidagicha bo'ladi: Yenisey kombaynida – 35 ming so'm, Keys kombaynida – 32 ming so'm, KSA kombaynida – 34 ming so'm. Kombaynga sarflanadigan qiymatning qoplanish muddatini hisoblang. Fermer xo'jaligi qaysi kombaynni sotib olgani samarali ekanligini aniqlang.

Bunda quyidagi formuladan foydalaning:

$$M = \frac{S}{(P - T) \bullet V_q}$$

Bu yerda, M – Kombaynning qoplanish muddati, yil;
 S – Kombayn qiymati, so'm;
 P – 1 tonna g'alla uchun to'lanadigan haq, so'm/t;
 T – Kombayn tomonidan 1 tonna g'alla uchun qilingan sarf, so'm/t;
 V_s – kombayn tomonidan o'riladigan don massasi, t.

Hisob kitob uchun 28-jadvaldan foydalaning.

28-jadval

Hisob kitob jadvali

Kombaynlar Ko'rsatkichlar	Yenisey	Keys	KSA
U1	U2	U3	U4
Qiymati, ming so'm			
Quvvati, tonna			
G'alla uchun haq, so'm/t			
G'alla uchun sarf, so'm/t			
Qoplash muddati, yil			

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

17-MASHG'ULOT. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga xavfsizlik tushunchasi, korxona xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va uning tamoyillari, sir tushunchasi, korxonaning tijorat siri va uni himoya qilish mexanizmi, raqobat tushunchasi, axborotlarning qo'lga kiritilish uslublarini o'rgatish.

II. Darsning rejası:

1. Korxona xavfsizligini ta'minlashning maqsadi va vazifalari.
2. Korxona tijorat siri mohiyati.
3. Tijorat sirini himoya qilish mexanizmining asosiy elementlari.
4. Raqobatchilar to'g'risida axborot olish uslublari.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 20, 23, 27, 29, 30, 32, 35

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Korxonaning xavfsizligi deganda nima tushiniladi?

A. Xavf-xatarlarni oldini oldini olib korxona faoliyatini barqarorlashtirish mexanizmi

B. Korxonaning investision faoliyati

D. korxona bankrotlika uchramasligi uchun tuziladigan iqtisodiy fondlar

E. Bankrotlikni oldini olishga qaratilgan tadbirlar yigindisi

2. Korxonaning bankrotlik xavfining asosiy turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Moliyaviy, tijorat, investitsiya

B. Ishlab chiqarish, moliyaviy, sanatsiya

D. Ishlab chiqarish, moliyaviy, tijorat

E. Moliyaviy, tijorat, moddiy

3. Korxona tijorat sirini himoya qilish mexnizmi qanday tadbirlardan tashkil topadi?

A. Texnik, jarima, rag'batlantirish, kuzatuv, tashkiliy

B. Tashkiliy, "ochiq testlar", jarima, rag'batlantirish, kuzatuv

D. Texnik, tashkiliy, rag'batlantirish, teshiruv, kuzatuv

E. Tashkiliy, "ochiq testlar", texnik, rag'batlantiruvchi, tekshiruv

4. Korxona xavfsizlik xizmati qanday vazifalarni bajaradi?

A. Axborot xavfsizligini ta'minlash, texnik muhofaza, maxfiy faoliyatni tashkil etish; korxona xodimlarini ishdan haydash

B. Maxfiy faoliyatni tashkil etish; axborot xavfsizligini ta'minlash, texnik muhofaza, maxfiy faoliyatni tashkil etish; jamoadagi salbiy yo'nalishlarning oldini olish

D. Maxfiy faoliyatni tashkil etish; axborot xavfsizligini ta'minlash, texnik muhofaza; boshqa korxonalarining yosh xodimlaridan ma'lumot olish

E. Maxfiy faoliyatni tashkil etish; axborot xavfsizligini ta'minlash, ishchilarni moddiy rag'batlantirish

5. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tamoyili deganda nima tushuniladi?

A. Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlatning siyosiy va iqtisodiy harakatlari tizimi

B. Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan korxona rahbariyatining barcha harakatlari tizimi

D. Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan maqsadli strategik va taktik dasturlarni bajarishga qaratilgan iqtisodiy dastaklar majmuasi

E. Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan raqobatchilar harakatlarini o'rganishga doir iqtisodiy dastaklar majmuasi

6. Axborotlar qo'lga kiritilishi nuqtai nazaridan qanday guruhlarga bo'linadi?

A. Erkin olinadigan axborotlar; sotib olinadigan axborotlar; tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar

B. Erkin olinadigan axborotlar; sotib olinadigan axborotlar; internetdan olinadigan axborotlar

D. Sotib olinadigan axborotlar; maxfiy axborotlar; raqobatchilardan olinadigan axborotlar

E. Sotib olinadigan axborotlar; maxfiy axborotlar; xorijiy ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari

7. Raqobatchilar haqida axborot olish usullari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan ?

A. Ochiq manbalardan olinadigan axborotlar; kuzatish; tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar; internet ma'lumotlari

B. Sotib olinadigan axborotlar; maxfiy axborotlar; xorijiy ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari

D. Erkin olinadigan axborotlar; sotib olinadigan axborotlar; tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar

E. Ochiq manbalardan olinadigan axborotlar; kuzatish; raqobatchilar bilan ishlovchilardan olinadigan axborotlar; raqobatchilar faoliyat yuritayotgan shaxslar va yosh xodimlardan olinadigan axborotlar

8. Korxonaning tijorat siriga qanday ma'lumotlar kiradi?

A. Ochiq manbalardan olinadigan axborotlar; kuzatish; tijorat siriga mansub maxfiy axborotlar; internet ma'lumotlari

B. Ishlab chiqarish, texnologik ma'lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, ularni oshkor qilish korxona manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar

D. Sotib olinadigan axborotlar; maxfiy axborotlar; xorijiy ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari

E. Moliyaviy, tijorat, moddiy

9. Korxonalarning maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda nimalarga olib keladi?

A. Ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;

B. Ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lga xom ashyo, texnologiya va hokazolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi); korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomlarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;

D. Korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish va hokazolarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi; tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo'llash xavfi kuchayadi.

E. Barcha keltirilgan javoblar to'g'ri

10. Mutaxassislar tijorat sirlarining qancha qismi oshkor bo'lganda korxonalarning qancha qismi, qancha vaqtda bankrot bo'ladi degan fikrdalar?

A. $\frac{1}{4}$ qism tijorat siri, $\frac{1}{2}$ qism korxona, 1 necha oy


B. $\frac{1}{2}$ qism tijorat siri, $\frac{1}{2}$ qism korxona, 1 necha yil

A. $\frac{1}{4}$ qism tijorat siri, $\frac{1}{4}$ qism korxona, 3-4 oy

A. $\frac{1}{2}$ qism tijorat siri, $\frac{1}{4}$ qism korxona, 0,5 yil


5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Quyidagi chizmada keltirilgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini chizib oling va xulosa yozing.



6-rasm. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi

2-Topshiriq. Quyidagi chizmada keltirilgan korxonada axborotlarni himoyalash modelini chizib oling va xulosa yozing.



7-rasm. Korxonada axborotlarni himoyalash modeli

3-Topshiriq. Quyidagi chizmada keltirilgan korxona tijorat siri chizmasini chizib oling va xulosa yozing.



8-rasm. Korxonada tijorat siri

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziynet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

18-MASHG'ULOT. KORXONANING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI.

I. Darsning maqsadi: Talabalarga xavfsizlik tushunchasi, korxona xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va uning tamoyillari, sir tushunchasi, korxonaning tijorat siri va uni himoya qilish mexanizmi, raqobat tushunchasi, axborotlarning qo'lga kiritilish uslublarini o'rgatish.

II. Darsning rejasi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari.
2. Tashqi savdo shartnomasini tuzish.
3. Tashqi savdo operatsiyalarida qo'llaniladigan hisob-kitob usullari.

III. Darsning ta'minoti:

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11, 13, 16, 17, 18, 19, 22, 24, 25, 28, 30, 34

IV. Darsning borishi:

1. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.
2. Talabalar bilan ma'ruzada mavzu yuzasidan muhokama olib boorish.
3. Mustaqil topshiriqlar bajarish, baholash.
4. Talabalarga uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tushuntirish.

V. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

5.1. Test topshiriqlari.

1. Xalqaro mehnat taksimotining qanday shakllari mavjud?

- A. Eksport; import
- B. Xalqaro ixtisoslashuv; ishlab chiqarishning kooperasiyalashuvi
- D. Ichki mehnat bandligi; mehnatning xorijiy bozorga eksporti
- E. Ixtisoslashuv; mehnatning xorijiy bozorga eksporti

2. Xalqaro ixtisoslashuvning qanday shakllari mavjud?

- A. Buyumlashgan; detallashgan; qo'shma
- B. Detallashgan; texnologik; aralash
- D. Buyumlashgan; detallashgan; texnologik
- E. Texnologik; buyumlashgan; lisenziyali

3. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati ta'siri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Davlatning eksport va import faoliyatlari
- B. Korxona tovarlarini eksport qilish imkoniyati
- D. Korxonaning xorijiy korxonalar va davlatlardan investisiyalar jalb qilish faoliyati
- E. Tovar va xizmatlarni xalqaro ayirboshlash, resurslarning ko'chishi bilan bog'liq tadbirlarni faoliyatidir

4. Korxonani tashqi iqtisodiy faoliyati shakllarining asosiylari quyidagilar:

A. Tashqi savdo, xalqaro investisiya, xalqaro kooperasiya, valyuta va moliya-kredit operatsiyalari

B. Eksport, import, investitsiyalarni jalb qilish, chetga mehnat resurslari sotish

D. Eksport, import, xalqaro investisiya, chetdan valyuta sotib olish

E. Ixtisoslashuv, kooperasiya

5. Tashqi savdo shartnomasida nima bayon qilingan?

A. Importyor va eksportyorning huquq va majburiyatlari bayon qilingan

B. Importyor va eksportyorning daromad va xarajatlari bayon qilingan

D. Importyor va eksportyor oldi-sotdi shartnomasini shartlari bayon qilingan

E. Importyor va eksportyorning manzillari bayon qilingan

6. Korxonani tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat qaysi hisoblanadi?

A. Mamlakat Konstitutsiyasi

B. Vena konvensiyasi

D. Korxonalar to'g'risidagi qonun

E. Tashqi savdo shartnomasi

7. Quyida qayd etilgan qaysi omillar korxonaning tashqi muhitiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadi?

A. Iqtisodiy omillar

B. Siyosiy omillar

D. Raqobat

E. Bozor inijliklari

8. Xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasidagi ishlarni har tomonlama kuchaytirish qaysi yili va nechanchi ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan?

A. 2008 yil 3-ustuvor yo'nalish

B. 2007 yil 3-ustuvor yo'nalish

D. 2008 yil 6-ustuvor yo'nalish

E. 2007 yil 7-ustuvor yo'nalish

9. Mamlakatimiz agrar korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatlari qaysi vazirlik tomonidan nazorat qilinadi?

A. Iqtisodiyot vazirligi

B. Tashqi ishlar vazirligi

D. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

E. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

10. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi veb-sahifasini bilasizmi?

A. www.gov.uz


B. www.mfer.uz

D. www.agro.uz

E. www.press-service.uz


5.2. Amaliy topshiriqlar.

1-Topshiriq. Korxonaning tashqi iqtisodiy aloqalari jarayoni chizmasini chizib oling va izohlang.




9-rasm. Korxona tashqi iqtisodiy aloqalari shakllari

2-Topshiriq. Korxonaning inkassa hisob-kitobi jarayoni chizmasini chizib oling va izohlang.




10-rasm. Korxona inkassa hisob-kitobi jarayoni

3-Topshiriq. Korxonaning akkreditiv hisob-kitobi jarayoni chizmasini chizib oling va izohlang.



11-rasm. Korxonada akkreditiv hisob kitobi jarayoni

4-Topshiriq. Korxonaning bank o'tkazmasi hisob-kitobi jarayoni chizmasini chizib oling va izohlang.



12-rasm. Korxonada bank o'tkazmasi hisob-kitobi jarayoni

5.3. Qo'shimcha topshiriq:

Internet tarmog'idan mazkur mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va qisqacha muhokama qilish.

www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.tfi.uz, www.samqxi.uz, www.gov.uz, www.uz, www.uzreport.uz, www.referat.uz va boshqalar.

VI. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.

VII. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.

VIII. Savol-javoblar.

IX. Uyga vazifa.

- 9.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 9.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 9.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

MUNDARIJA

1-Mashg'ulot: «Korxona iqtisodiyoti» kursining mazmuni va vazifasi	5
2-Mashg'ulot: Korxona- mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'yekti	10
3-4-Mashg'ulotlar: Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini tugatish	14
5-6- Mashg'ulotlar: Korxonani boshqarish	20
7- Mashg'ulot: Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish...	27
8-Mashg'ulot: Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi	33
9-Mashg'ulot: Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati	37
10-11- Mashg'ulotlar: Korxonaning aylanma mablag'lari	41
12-Mashg'ulot: Korxonada kadrlar va mehnatga haq to'lash	45
13-14- Mashg'ulotlar: Korxona faoliyati harajatlari, daromadi va rentabelligi.....	49
15-16- Mashg'ulotlar: Korxonaning investisiyaviy faoliyati.....	55
17- Mashg'ulot: Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri.....	60
18- Mashg'ulot: Korxonaning tashqi iqtisodiy aloqalari.....	66

